

**Buxoro Davlat Universiteti, Ijtimoiy – iqtisodiy fakulteti 5A610301 –  
Turizm ( xalqaro va ichki turizm ) mutaxassisligi magistratura ta’lim  
bosqichi II kurs talabasi Qilichov Muhridinning “O`zbekistonda ichki  
turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini” mavzusidagi  
magistrlik dissertatsiyasiga**

**ANNOTATSIYA**

O`zbekistonda turizm faoliyatiga, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me’yoriy hujjatlar qabul qilingan va qabul qilinmoqda. Mamlakatimizda turizmning ravnaqi, uni yangi pog`onalarga ko`tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi. Shu tufayli O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mazkur yo`nalishga taa`lluqli qonun va kodekslari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarining yo`riqnoma, ko`rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilmoqda.

Misol tariqasida, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni sifat darajasini oshirishga xizmat qildi.

2014-yil 13-martda “Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziya tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” O`zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 60-qarori tasdiqlandi. Qarorga ko`ra O`zbekturizm MKga turistik tashkilotlarga berilgan litsenziyalarni xatlovdan o`tkazish va ular yangi namunadagi litsenziyalar bilan almashtirilishini, turizm faoliyati subyektlari bilan birgalikda litsenziya bitimlarini, Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi Nizomga kiritilgan o`zgartirish va qo`shimchalar bilan

muvoqilashtirish vazifalari qo'yildi va ichki turizm bilan shug'ullanuvchi turoperatorlarni faoliyatini litsenziyalash tartiblari ham ishlab chiqildi.

Yurtimiz sayyohlik sohasidagi yutuqlarini 2014-yilning birinchi yarim yilligida mamlakatimizda ko'rsatilgan turistik xizmatlar hajmi 2013-yilning birinchi yarmiga nisbatan 113.4%ga, turizm xizmatlari eksporti esa 115.3%ga o'sganidan ham ko'rish mumkin. Juda ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining asosini turizm sohasidan keladigan daromadlar egallaydi. Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti I.A Karimov o'zining N PQ-1754 qarori bilan xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016-yillarga mo'ljallangan dastur loyihasini tasdiqladi.

Kurort sanatoriyalarning tashkil qilinishi sog'lomlashtirish turizmi rivojlanishiga olib keldi. 2013-yil ma'lumotlariga ko'ra yurtimizda 156 ta sanatoriya mavjud bo'lib, shu yilning o'zida 265500 kishiga xizmat ko'rsatilgan. Chunki bu maskanlarda xizmat ko'rsatish va ishni tashkil qilish juda yaxshi olib borilmoqda. Barcha mijozlar o'z ta'til davrlarini yaxshi kayfiyatda o'tkazmoqdalar. Shu sababli ham turizm bunday maskanlarning o'rni juda muhim hisoblanadi. Ichki turizm rivojlanish jarayoniga ham ta'sir qiladi. Sanatoriya kurortlar soni yildan yilga ko'paymoqda, albatta talab ham shunga qarab shakllangan. Buning zamirida ijtimoiy turizmga bo'lgan e'tibor turadi. Prezidentimiz rahnamoligida nafaqaxo'rlarga, ishchi xodimlarga sanatoriyalarda dam olish imkoniyatining yaratilishi jamiyat a'zolarining kayfiyatini ko'tarib, ularni sayohatlarga undamoqda. Bu holat ijtimoiy turizm rivojlanish holatini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy turizmning quyidagi xususiyatlari ajratiladi. Ular quyidagilar:

- Jamiyatni shakllantiruvchi mexanizm;
- Iqtisodiy o'sish omili;
- Hududiy va mahalliy rivojlanish ishtirokchisi;
- Global rivojlanish dasturlarining hamkori.

Bunday ishlarni amalga oshirishda xorijiy tajribaga tayanish asosli bo'ladi. Ichki turizmni rivojlantirishda turizm sanoatida katta yutuqlarga erishgan

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Germaniya, Ispaniya kabi qator davlatlar tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlab chiqqan ko'p yillik dasturlar asosida bugungi kunda olinadigan daromad yuqoriligi, ish o'rinlarning ortishi, mavsumiylikning yo'qolib, ishning to'xtamay mutaasil davom etishiga erishilgan. Masalan jahon tajribasidan turizmni (xalqaro va ichki) rivojlantirishda Avstraliyada olib borilgan ishlar soha rivoji uchun juda katta hissa qo'shgan. Buni raqamlarda ham kuzatishimiz mumkin. Avstraliyada turizm rivojlanishi Avstraliya hukumatining sayohat industriyasidan oladigan daromadi va ko'plab ishchi o'rinlarini yaratishini tushunib yetgandan keyin katta siljishga olib keldi. 2015-yilning o'zida 87.054.000 tashrif buyuruvchi 1 kundan ortiq sayohat qilgan bo'lib, tunashlar soni 308.908.000 taga teng, o'rtacha tunash kuni 3.8 kunga tengdir. Jahon tajribasidan turizmni rivojlantirish maqsadida to'rt bog'inga e'tibor berish orqali oldinga siljishni ko'rishimiz mumkin, bular:

- Turizm marketingi va uni siljitish yo'llarini ishlab chiqish;
- Yangi turistik bozorlarni topish va ularni rivojlantirish;
- Turizm biznesini kengaytirish;
- Transport va infrastruktura darajasini oshirish;

Xalqaro tajribalarni o'rganish jarayonida ichki turizmning quyidagi xususiyatlarini mavjudligi aniqlandi:

- Ichki turizm bu- milliard dollarlik sanoat;
- Region iqtisodiyoti asosi;
- Turizmdagi mavsumiylikni yumshatuvchi faoliyat.

Ichki turizm rivojlanishi bilan turizmda taklif etilayotgan mahsulotlarning sifati oshadi, chunki biznesda faoliyat yurituvchilarning ko'proq tashriflarni jalb qilishga harakati bunga sabab bo'ladi. Albatta, mahsulot sifati yaxshilangandan keyin u xorijiy turistni o'ziga jalb qila oladi. Boshqacha qilib aytganda ichki turizm xalqaro turizm rivojlanishi uchun platforma vazifasini o'taydi. Natijada turistik mahsulotlar va xizmatlar eksporti oshib, har qanday regionda rivojlanish, turmush darajasi yaxshilanishi, yangi ishchi o'rinlarining yaratilishi bilan birga

sohada kuchli raqobat muhitini shakllantirib, infratuzilma darajasi ko'tarilishiga olib keladi.

Turizmni rivojlanish jarayonining asosida ichki turizmni rivojlantirish yotadi. Buni yuqoridagi davlatlar misolida ko'rib chiqildi, mamlakatimizda ichki turizmni ilg'or darajaga olib chiqish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- Hududdagi barcha mavjud resurslarni aniqlash;
- Infratuzilmani yaxshilashga e'tibor qaratish;
- Yosh kadrlarning yetishib chiqishini ta'minlash;
- Hududni rivojlantirish borasidagi eng yaxshi loyihalarni jalb qilish;
- Sohada faoliyatini boshlash uchun tadbirkorlarga imtiyoz va kreditlarni tashkil qilish;
- Turistik masalalarni amalga oshirish jarayonidagi turli xil darajadagi tashkilotlar munosabatlarini muvofiqlashtirish;
- Ichki turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish;
- Ichki turizm rivojlanish dasturlarini ishlab chiqib hayotga tatbiq etish kabilardir.

Yurtimiz azal-azaldan madaniyat o'chog'i sanalib kelgan. Shu sababli xorijlik sayyohlarning e'tiborini tortib kelayotgan go'zal, tarixiy shaharlarimizga 2 mln. yaqin sayyohlar tashrif buyuradi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sayyohlik sohasini taraqqiy ettirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar jarayonida ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu borada qator hududiy dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Masalan: Sayyohlik xizmatlari ko'rsatish sohasiga madaniyat, telekommunikatsiya, savdo, ovqatlanish, sanoat sohasi tashkilotlari hamda muassasalari, ommaviy axborot vositalari faol jalb etilmoqda. Mamlakatimizda ichki turizm salohiyatini keng targ'ib etish, hududlardagi sayyohlik ba'zalari, dam olish zonalari, pansionatlar,

sanatoriy va kurortlar, rekreatsion va ekoturistik tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sayyohlik sanoati ravnaq topgan mamlakatlarda ichki turizm birinchi o`rinda turishi ko`p bor ta`kidlangan. Albatta ichki turizmning shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog`liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo`lsa, ichki turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi. Turizm respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo`jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o`zining munosib o`rniga ega bo`lishiga erishish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirish uchun uzoq muddatli, aniq loyihalar asosida ishni olib borish talab qilinadi. Ammo rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishdan oldin uning hozirgi holati ya`ni miqdoriy ko`rsatkichlari, mahalliy sayyohlarning xohish istaklarini aniqlash, ularning hozirgi davrda manzilgohlarining ro`yxatini, qilinayotgan sarf xarajatlarning qanday ko`lamda ekanligini shakllantirish muhim qadamlardan biri sanaladi. Bunday ma`lumotlarga ega bo`lish faqatgina statistik ma`lumotlarni jamlash orqali erishiladi. Statistik ma`lumotlardan esa ichki turistlar oqimining faqatgina ma`lumgina qismi haqida bilib olamiz, u ham bo`lsa tunashlarni mehmonxona va boshqa tasarrufdan o`tgan, O`zbekturizm MK si ga bo`ysunuvchi joylashtirish maskanlaridan. Ammo mustaqil sayohatni tashkil qilib, qarindosh, ijara, dala hovlida va boshqa joylarda dam olayotgan yoki bir kundan oshmaydigan sayohatlar haqida ma`lumotlar mavjud emas. Tadqiqotlar olib borish va mavjud imkoniyatlarni o`rganib chiqish asnosida yechim sifatida tanlanma kuzatuv anketalaridan foydalanishning metodologik ko`rsatmalari ishlab chiqildi. Ko`rsatmada statistik hisobotning yuritish usullari, ichki turistlarning tashrif maqsadlari va savollar jamlammasi ko`rsatilgan. Bu metodologik ko`rsatma Davlat Statistika qo`mitasi, Buxoro viloyat statistika boshqarmasi boshlig`i B.B Giyazov va O`zbekturizm MK, Buxoro mintaqaviy bo`limi boshqaruvchisi SH.R Mahmudovlar tomonidan baholanib, amaliyotga qo`llashga tavsiya qilindi.

Buxoro viloyatining o'zida juda ko'plab diqqatga sazovor joylar mavjud bo'lib, ayniqsa ko'llar atrofi, ulardagi go'zallik, flora, fauna kishini hayratda qoldiradi. Shunday maskanlardan Buxoroning Qorako'l tumanida joylashgan "Zamon bobo" ko'li bo'lsa, yana biri Buxoroning shimolida, Shofirkon tumanida joylashgan "Oyoqog'itma" ko'li va uning atroflaridir.

Shu sababli asosiy maqsadi ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan **"Og'itmaning issiq tarovati"** nomli ekoturistik loyihani taqdim qilindi.

**"Og'itmaning issiq tarovati" loyihasining asosiy mazmuni:** Ko'l hududi va uning atrofida ekologik-rekreasion maskanlarni tashkil qilish orqali hudud infratuzilmasi yaxshilanishiga, uni butun respublika va jahonda tanilishiga olib kelishdan iboratdir.

Loyihaning afzallik tomonlari:

- Tabiiy diqqatga sazovor joy bo'lgan "Oyoqog'itma" botig'ini rekreasion, ekologik, sog'lomlashtiruvchi, ziyoratgoh hudud sifatida tanilib, hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi 40-50% oshadi;
- Hududda asosan ichki hamda kirish turizm faoliyati rivojlanib, turistik bozorda o'z mavqeyiga ega istiqbolli rekreatson-ekologik hudud sifatida kirib boradi;
- O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan mazkur hududning iqtisodiy salohiyati 2 barobarga oshadi;
- Hozirgi kunga global muammoga aylangan ekologik yo'qotishlar kamayadi;
- O'sib kelayotgan yosh avlod tabiatga muhabbat ruhi bilan ulg'ayadi;
- Dastur ishga tushishi bilan rekreasion markaz o'z xarajatlarini tashrif buyuruvchilardan kelayotgan daromad hisobiga qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu loyihaning amalga oshirilishi hudud miqyosida quyidagi natijalarga olib kelishi kutilmoqda;

- ✓ Hududdagi rekreasion, ekoturistik, xizmatlarni rivojlantirish—mahalliy sayyohlarimiz qiziqishini oshiradi;

- ✓ Turizmning ichki va kirish turlari faoliyati orqali hududda turistik iqtisodiy ba`za yaratiladi;
- ✓ Hududda yaratilgan markaz faoliyati yillar sari kengayib, iqtisodiy va tabiiy salohiyati oshadi;
- ✓ Ichki sayyohlarning tashrifi asosida xalqaro turistlarning ham qiziqishi va e'tibori ortib kelajakda ulkan turistik markazga aylanish imkoniyati mavjud;
- ✓ Dam olish madaniyati va turizmga munosabat tubdan o'zgarib, yosh avlod tabiatni asrash uchun izlanishlar olib borib, tabiat bergan resurslardan oqilona foydalanish, uning har bir qismini asrash uchun ham bosh qotiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hozirda bunday hududlarning tashkil qilinishi sayohat qiluvchilarga yangicha kayfiyat, his hayajonni ulashishi bilan birga ichki turizm bilan shug'ullanuvchi turoperatorlar biznesi ham rivojlanib, kengayishiga olib keladi. Turistik resurslarimizdan unumli foydalanish orqali ulkan yutuqlarga erishib, kelajakda katta miqdordagi xorijiy sayyohlarni ham jalb qila olamiz.

## ANNOTATION

**to Master's Dissertation work of Qilichov Muhridin - student of 2<sup>nd</sup>-course-master student of Faculty of Economics, 5A610301 -Tourism (International and Internal Tourism) of Bukhara State University on the theme of "Theoretical and practical aspects of development of internal tourism in Uzbekistan"**

In Uzbekistan tourism activity has been defined as business of the state importance from first days of independence. For development of this sphere all have been created necessary organizational-legal mechanisms, were made and still being made all necessary normative documents. For development of tourism in our country, its raisings on new level and transformations of the country into one of the centers of world tourism, first it was necessary to create a legal basis. Therefore, there are made and implemented Acts and Codes of Government of the Republic of Uzbekistan in this field, also Orders and Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, Decisions of the Cabinet of Ministers, Instructions, Orders and Regulations of Ministry of Justice and other corresponding authorities of the Republic of Uzbekistan.

As an example it is possible to result the Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "About measures of further support and development of tourism activity in the Republic of Uzbekistan" dated October 10, 2012 had served to support of development of tourism and a tourist infrastructure, improvement of quality of national tourist services.

On March 13, 2014 it was approved Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "About measures of improvement of execution and licensing order of tourism activity" under N. 60. According to the decision, it is provided inventory of tourism organizations at Uzbektourism National Company and replacement of issued licenses to new licenses, the conclusion of licence agreements with subjects of tourist activity, it was undertaken to execute task of coordination of activity of the tourist organisations with requirements of changes and additions, made to Regulation about licensing of tourist activity, also usages



of licensing of activity of the tour operators which are engaged with internal tourism have been developed.

In our country the tourist sphere grows every year, for example in first half of 2014 concerning first half of 2013 volume of tourist services of deus on 113,4 %, and export of tourist services of deus on 115,3 %. In many developed countries the basic sources of incomes of economy are incomes from tourism. Therefore, I. A. Karimov has approved the Program of Development of Touristic service and branches in 2012-2016 by his Decision N.-1754.

Creation of resorts and sanatorium has led to development of improving tourism. According to 2013 in our country there are 156 sanatoria which in the current year served to 265 500 people. How in such establishments service and the work organization are very well adjusted. Therefore, in tourism such places are of great importance. Internal tourism, also influences development. The quantity of sanatoria and resorts increases from year to year. In the basis of it there is an attention to public tourism. Under the protection of our President to pensioners and employees possibilities to have a rest in sanatoria that cheers up members of a society are organized and pushes them to travel. This case displays a situation of development of social tourism. From this point of view following features of social tourism are divided. They are the followings:

- Mechanism, shaping the society;
- Factor of economic growth;
- Participant of local and regional development;
- Partner of Global development program.

During realization of such works, well-founded is to lean against foreign experience. In development of internal tourism of the big successes have reached such countries as Australia, New Zealand, Germany, Spain, and we should study their experience. On the basis of the long-term programs developed by them, in the present day will reach result in the form of income increase, preventing of seasoning and regular working duration. For example, the works executed in Australia have brought the essential contribution to development of the

international tourism. We can observe it, also in figures. Tourism development in Australia has started to occur very high rates after the government of Australia has started to understand that from tourism it is possible to receive the big incomes and to reach to creation of numerous workplaces. To 2015 year 87.054.000 visitors have arrived there and remained more than 1 day, the quantity of spending the night made 308.908.000, average duration of spending the night makes 3,8 days. From world practice we can observe that with a view of development it is necessary to pay attention to four aspects. They are:

- Tourism marketing and working out of ways of its development;
- Search of the new tourist markets and their development;
- Expansion of tourist business;
- Increase of level of transport and an infrastructure.

In the course of studying of the international experience, following features of internal tourism are found out:

- Internal tourism is Billion-Dollar-industry;
- Base of Regional Economy;
- The Activity, softening seasonal prevalence in tourism.

With development of internal tourism quality offered products in tourism, as all people engaged in this activity try to attract more visitors raises. Certainly, after improvement of quality of production, it can draw to itself (himself) attention of the foreign tourist. In other words, internal tourism serves as a platform for development of the international tourism. Export of products and services that leads to development in different regions, to improvement of a way of life, creation of new workplaces, hence creation of competence environment in this sphere and development of infrastructure level as a result increases.

On basis of process of tourism development lies development of internal tourism. This is considered in example of above-stated countries. In our country there are necessary to conduct the following tasks for reaching of internal tourism to high level:

- Definition of all available resources in the territory;
- Pay attention to infrastructure improvement;
- Maintenance preparation of young experts;
- Involve the best projects concerning region development;
- Organize privileges and credits to businessmen to start activity in this sphere;
- Coordination of relations of the organizations of various level in the course of realization of tourist questions;
- Application of experience of the foreign states in development of internal tourism;
- Working out and introduction of programs of development of internal tourism.

Our country from time immemorial was considered as the culture center. Therefore our beautiful, historical cities visit more than 2 million visitors and tourists.

Under protection our President Islam Karimov in our country large-scale works concerning development of sphere of tourism have led to that now the special attention addresses on development of internal tourism and about it take root set of regional programs. For example, in sphere of service of tourists the organizations of culture, telecommunication, trade, a food, the industry, mass-media are actively involved. In our country many works on wide propagation of internal tourism, improvement of activity of regional tourist bases, zones of rest, boarding houses, sanatoria and resorts, the recreational and eco-tourist organizations are carried out.

All over the world affirms that internal tourism costs on the first place in all tourist branch of the country. Certainly, formation and development of internal tourism is connected with potential of tourist resources. If the country is rich with various tourist resources development of internal tourism will be so easy. The

primary goal of tourism is that it will take the worthy place along with other branches, as agriculture, the industry, transport and other macroeconomic branches. For realization of such works it is required to run business on the basis of the long-term, accurately developed projects. However, before working out of programs of development, it is necessary to take the first step, that is to define its current condition - macroeconomic indicators, to define desires of local tourists, to form the list of addresses and the expenses necessary for a trip. Presence of such data can reach only by gathering of the statistical data. And from the statistical data we can learn only a certain part of desires of a stream of tourists, that is a place and time of spending the night by reception of the information from local establishments under Uzbektourism National Company. However we cannot receive data on tourists which will organise trip independently, spend the night at relatives, on rent, on summer residences and other places, and also about trips duration of no more than one day. On the basis of conducting researches and studying of available possibilities, methodological instructions of using of selective observant questionnaires are developed. In the instruction methods of conducting the report, the purpose of a trip of internal tourists and the list of questions are specified. The given methodological instruction has been estimated by Head of Bukhara Regional Statistics Department under State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan B. B. Giyazov and Manager of Bukhara Regional Department of Uzbektourism National Company Sh. R. Mahmudov and recommended to implementation.

In Bukhara Region there are many places of interest, especially sides of lakes, flora and fauna of such places attract out attention. One of such places is Zamon Bobo lake of Karakul District, another one is Oyoqog`itma lake, located on the North from Bukhara in the territory of Shafirkan District.

Therefore we offer the eco-tourist project, called **“Og`itmaning issiq tarovati”** (Warm beauty of Og`itma).

Major importance of “**Og`itmaning issiq tarovati**” project: the organisation of ecologically-recreational districts in territory and round lake, improvement of an infrastructure and make famous in Republic and the World.

Advances of the project:

- Oyokogitma lake will become famous as ecologic recreation, health-improving, also pilgrims and amount of visitors will increase by 40-50 %;
- In region, basically, internal and entrance tourism develops, enters into the tourist market as recreation-ecological region with own reputation;
- Potential of this region which is in a deserted zone of Uzbekistan, will increase in 2 times;
- Quantity ecological loss, which have become a global problem, will reduce;
- Young generation will have a feeling of love to the nature;
- From the moment of implementation, this program can be covered at the expense of income from visit of tourisms.

Realization of this project conducts to following results in region:

- Development of recreational, eco-tourist services raises interest of local tourists;
- In region the eco-tourist base through internal and entrance tourist activity is created;
- Activity of the cent created in region extends for years, the economic and natural potential raises;
- On the basis of visit of internal tourists, will increase the international tourists and in the future there is a possibility that this place can will turn to the large tourist center;
- Culture of rest and the relation to tourism considerably varies, the young generation conducts searches for nature protection, thinks of ways of rational using and preservation of natural resources.

As a conclusion we can say that organization of such regions leads to occurrence of new mood, feelings to travelers, also development of touristic

operators business, engaged in internal tourism. Through rational using of tourist resources we can reach high successes, in the future we can attract huge amount of foreign tourists.

## Mundarija:

<b>Kirish</b>	18
<b>I bob. O`zbekiston iqtisodiyotida turizmning o`rni, ichki turizmning nazariy asoslari</b>	
1.1. Turizmning asosiy kategoriyalari va me`yoriy-huqiqiy bazasi	24
1.2. Ichki turizmning nazariy asoslari	31
1.3. O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida turizmning ahamiyati	36
<b>I bob bo`yicha xulosa</b>	45
<b>II bob. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda ichki turizm sohasidagi o`zgarishlar</b>	
2.1. O`zbekistonda ichki turizm industriyasi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari	46
2.2. Ichki turizmning milliy iqtisodiyotdagi salmog`ining iqtisodiy tahlili	55
2.3. O`zbekistonda ijtimoiy turizmning ichki turizmni rivojlantirishdagi roli	69
<b>II bob bo`yicha xulosa</b>	75
<b>III-bob. O`zbekistonda ichki turizmni yanada rivojlantirish istiqbollari va chora-tadbirlari</b>	
3.1. Ichki turizmni rivojlantirishda turistik mamlakatlar tajribalarini qo`llash imkoniyatlari	76
3.2. O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish	85
3.3. Mahalliy sayyohlarga moslashtirilgan rekreatsion turistik markaz loyihasi va turistik dastur	95
<b>III bob bo`yicha xulosa</b>	106
<b>Xulosa</b>	107
<b>Adabiyotlar ro`yxati</b>	111
<b>Ilovalar</b>	125

## Kirish

XXI asrga kelib, turizm sanoati o'zining qanday kuchga ega ekanligini ko'rsatdi. Butun jahon turizm tashkilotining ma'lumotiga ko'ra jahonda va yurtimizda ham sayyohlik sanoati yildan yilga rivojlanib iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yuksalishlarga erishmoqda. 2014-yilda butun jahonda turizmdan qilingan daromad miqdori 1,245 mlrd AQSH\$ ni tashkil qilgan. Albatta shuning natijasi o'laroq Birlashgan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi 2017 yilni Xalqaro Turizm yili deb e'lon qildi. Ushbu qaror 2015- yilning 4-dekabr sanasida qabul qilinib, "turizmning nechog'lik ahamiyatga ega ekani va millatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka xizmat qilishi, bir-birining boy madaniy va tarixiy me'rosi haqida to'laqonli ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, turizm boshqa mamlakat, millatlar qadriyatlariga hurmat uyg'otadi va bu orqali dunyoda tinchlikning mustahkamlanishini ta'minlaydi"[171]. Xalqaro turizmdanda yuqori ko'rsatkichlarga ega ichki turizmni ham rivojlantirish dunyo mamlakatlarida muhim o'rin egallab kelmoqda.

«O'zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, — degan edi Prezidentimiz Islom Karimov - sayohat marshrutlarining xilma – xil turlarini tashkil etishga va sayohatchilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi». Ichki turizm – har bir mamlakat aholisining shu mamlakat bo'ylab sayohat qilishi bo'lsa, bu sayohat orqali u o'zligini, millatini, tarixini, madaniyatini qaytadan kashf qiladi.

O'zbekistonda nafaqat xorijiy balki mahalliy mehmonlarni jalb qilishda ko'plab resurslar mavjud: hayvonot va o'simliklar olamiga boy bo'lgan cho'l va qo'riqxonalar, diqqatga sazovor tabiat manzaralari, ziyoratgohlar, tog' cho'llari va daryolar, bir-biridan go'zal ko'llar, 300 dan ortiq shifobaxsh mineral suv manbalari - ichki turizmni faol ravishda rivojlantirish uchun katta ahamiyatlidir.

**Ishning dolzarbligi.** Hozirgi kunda turizm sanoati rivojlangan mamlakatlar ayni sohadan tushadigan daromadning ma'lum qismini xalqaro turizmdan olsa, ichki turizm uning asosiy qismini tashkil etadi. Demak, mamlakat turistik potensialidan keng foydalanishda ichki turizmni rivojlantirish belgilovchi



ahamiyat kasb etadi. Magistrlilik dissertatsiyasi milliy iqtisodiyotimiz uchun dolzarb bo`lib, O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish masalasiga bag`ishlangan.

Ayni paytda mamlakatimizda sayyohlikning ekoturizm, ekstremal, ma`rifiy, madaniy va jismoniy sayohatlar kabi turlari ham izchil rivojlanmoqda. Sayyohlar orasida alpinistlar, chang`i sportiga qiziquvchilar ko`paymoqda. Ichki turizm orqali mahalliy sayyohlar tarixiy, madaniy, diniy sohaga oid ko`plab foydali va qiziqarli ma`lumotlarga ega bo`lishi mumkin. Shuningdek, Farg`ona vodiysi, Bo`stonli, Zomin, Urgut, Kitob, Boysun, Qizilqum kabi hududlarda tog`, sport, rekreatsion turizm, ekoturizm rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar bor. Ammo boshqa hududlardagi tabiiy resurslardan samarali ishlatilmayotganligi, hamda hudud doirasida yangi, zamonaviy marshrutlarni yo`qligi va xizmat ko`rsatish darajasining segmentlashmaganligi va ba`zi hududlarda mavjud bo`lmaganligi dolzarb muammolarga olib kelmoqda.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Ichki turistik oqimlar va ularning talab va ehtiyojlarini qondirishda qatnashadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Mahalliy turistik taklif tizimlarini shakllantiruvchi va ularni ichki turizmga moslashtirishga qaratilgan jarayonlar, ichki turizmni yurtimiz bo`ylab rivojlantirish uchun zaruriy innovatsion turistik dasturlarning yaratilish texnikasi va noan`anaviy turistik komplekslarni qurish loyihalari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, mahalliy sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga moslashgan milliy turistik taklif tizimini shakllantirish bo`yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish. O`zbekistonda ichki turizm statistikasini yuritish bilan bog`liq muammolar yechimini taklif qilish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi:

✓ Turizmning asosiy kategoriyalari va me`yoriy-huquqiy bazasi o`rganib chiqish;

- ✓ Ichki turizmning nazariy asoslarini yoritish;
- ✓ O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida turizmning ahamiyatini yoritish;
- ✓ O`zbekistonda ichki turizm industriyasi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;
- ✓ Ichki turizmning milliy iqtisodiyotdagi salmog`ining iqtisodiy tahlilini qilish;
- ✓ O`zbekistonda ijtimoiy turizmning ichki turizmni rivojlantirishdagi rolini oshirish yo`llarini o`rganib chiqish;
- ✓ Ichki turizmni rivojlantirishda turistik mamlakatlar tajribalarini yurtimizda qo`llash imkoniyatlari ko`rib chiqish;
- ✓ O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- ✓ Buxoro viloyati bo`yicha kombinatsion turistik marshrutini ishlab chiqish va mahalliy sayyohlarga moslashtirilgan turistik loyihalarni amalga oshirish rejalarini ishlab chiqish;
- ✓ “Og`itmaning issiq tarovati” turistik markazini yaratish va uning rekreatsion loyihasi, turistik dasturini taqdim qilish;
- ✓ Ichki turizm statiskasini yuritish bilan bog`liq ko`rsatmalarni tavsiya qilish.

**Tadqiqot metodlari.** O`zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, “O`zbekturizm” MK tomonidan ishlab chiqilgan me`yoriy hujjatlar, “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi” qonunlari kabilarga tayaniladi. Unda guruhlash, taqqoslash, sistemali yondashish, SWOT-tahlil, analiz va sintez kabi usul va uslublardan foydalaniladi.

**Ishning yangiligi.** O`zbekistonda mavjud milliy va mahalliy turizm resurslaridan foydalanish dasturlarini ishlab chiqish.

Jumladan, Buxoro viloyati Shofirkon tumanida joylashgan Oyoqog`itma ko`li turistik imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida, “Og`itmaning issiq tarovati” nomli, ichki turizmga moslashtirilgan innovatsion turistik ekomarkaz loyihasini va turistik dasturini ishlab chiqish. “O`g`itmaning issiq tarovati”

turistik marshruti bo`ylab sayohat qilishni tashkil etish maqsadida jahongashta.uz turoperatorlik kompaniyasiga turistik dastur tayyorlab berish. Buxoro viloyatida mavjud rekreatsion turistik resurslaridan oqilona foydalanish, mahalliy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Ichki turizm statistikasi uslubiyotini takomillashtirish maqsadida xalqaro standartlarga moslashgan, Butunjahon Turistik Tashkiloti tavsiyasiga asoslangan hamda O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi 2012-yil 18-yanvar “Turizm statistikasi bo`yicha uslubiy nizom” ni tasdiqlash to`g`risidagi qarorga binoan ichki turizm statistikasini olib borish bo`yicha uslubiy ko`rsatma ishlab chiqish. Shuningdek, ko`rsatma tarkibiga statistik tahlillarni olib borishda qo`llaniluvchi savollar to`plami, tahlillarni olib borishda maqsadga muvofiq bo`lgan tanlanma kuzatuvning 3 shakldagi uslubi va ichki turizm maqsadlari ochib berilgan.

**Ilmiy ishning amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida “O`zbekistonda ichki turizmga oid statistik ma`lumotlarni yig`ish va tahlil qilishni takomillashtirish yo`llari” nomli metodologik ko`rsatma tayyorlangan. Unda ichki turizm statistik ma`lumotlarni yig`ishda tanlanma kuzatuv anketalaridan foydalanish bo`yicha metodologik ko`rsatmalar ishlab chiqilgan. Bu metodologik ko`rsatma Davlat Statistika qo`mitasi, Buxoro viloyat statistika boshqarmasi boshlig`i B. B Giyazov va “O`zbekturizm” MK Buxoro mintaqaviy bo`limi boshqaruvchisi SH. R Mahmudovlar tomonidan ijobiy baholanib, statistik hisobotlarni yig`ish va tahlil qilish maqsadida amaliyotga joriy etish tavsiya qilindi (taqrizlar ilovada keltirilgan). Ishlab chiqilgan metodologik ko`rsatmaning amaliy ahamiyati shundaki, u orqali o`z sayohatini mustaqil tashkil qilib, borgan hududida qarindosh, ijara, dala hovli, va boshqa joylashtirish obyektlarida tunab qoladigan hamda sayohati bir kundan oshmaydigan tashrif buyuruvchilar (ekskursantlar) soni aniqlanadi. Shuningdek, mahalliy sayyohlarni ko`p jalb qiladigan turistik markazlarni aniqlash, ularning talabini o`rganish, amalga oshirilgan sarf-xarajatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo`linadi. Potensial mavjud turistik resurslarni aniqlab, investitsion loyihalarni tuzish va amalga oshirish evaziga

yangi ish o`rinlari paydo bo`ladi, hudud iqtisodiy jihatdan rivojlanadi, mahalliy sayyohlar ehtiyojlari qondiriladi va davlat budjetiga tushadigan mablag`lar oshishiga erishiladi.

Tadqiqotlar olib borish jarayonida Buxoro shimolida joylashgan, rekreatsion turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega resurs mavjudligini aniqlandi va bu yerda ekoturistik markaz loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u orqali mahalliy turoperatorlar mahalliy sayyohlarga moslashgan kombinatsion turistik dasturlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Ayni maqsadda 2 kun, 1 kechadan iborat “Og`itmaning issiq tarivati” nomli turistik dastur ishlab chiqildi va “Jahongashta.uz” turoperatorlik kompaniyasi tomonidan tijratlashtirish uchun qabul qilindi.

Tadqiqot natijalaridan “Turizm statistikasi”, “Turizmدا innovatsion loyiha”, “Ekoturizm” va “Turoperatorlik xizmatlarini tashkil etish” fanlarini o`tish jarayonida keng foydalanish mumkin.

**Dissertatsiya ishi bo`yicha chop etilgan ilmiy ishlar:** Ilmiy tadqiqot natijasi bo`yicha 6 ta ilmiy tezis, shu jumladan, 2 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjuman to`plamida, 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman to`plamida va 3 ta Buxoro davlat universiteti, magistirlarning maqolalar top`lamida chop etilgan.

**Dissertatsiya hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topgan bo`lib, bet 13 ta chizma, 7 ta jadval, 12 ta rasm, 1 ta ekoturistik loyiha va 1 ta turistik dasturdan iborat. Dissertatsiya ilova va annotatsiyadan tashqari-106 betdan iborat.

**Dissertatsiya tarkibi.** Qo`yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan tarkib topgan.

*Dissertatsiyaning kirish qismida* mavzuning dolzarbligi, uning o`rganilganlik darajasi, ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi, tadqiqot maqsadi, nazariy, metodologik va uslubiy asoslari, predmeti, obykti, ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi hamda dissertatsiyaning aprotatsiyasi bo`yicha ma`lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning *“O`zbekiston iqtisodiyotida turizmning o`rni, ichki turizmning nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi bobida ichki turizm tushunchasi, vazifalari, ahamiyati, o`ziga xos xususiyatlari, turlari hamda ichki turizm bozorida turoperatorlar, turistik tashkilotlarning asosiy funksiyalari ochib berilgan. Unda so`ngi yillarda turizm qonunchiligidagi o`zgarishlar va ularning rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

*“Mustaqillik yillarida O`zbekistonda ichki turizm sohasidagi o`zgarishlar”* deb nomlangan ikkinchi bob O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari, O`zbekistonda milliy va mahalliy turizm resurslari hamda O`zbekistonda ichki va ijtimoiy turizm rivojlanish holati ilmiy tahliliga bag`ishlangan.

*“O`zbekistonda ichki turizmni yanada rivojlantirish istiqbollari va chora-tadbirlari”* deb nomlangan uchinchi bobda ichki turizmni rivojlantirishda turistik mamlakatlar tajribalarini qo`llash imkoniyatlarini qo`llash, O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, mahalliy sayyohlarga moslashtirilgan rekreatsion turistik markaz loyihasi va turistik dastur ishlab chiqilgan.

*Dissertatsiyaning xulosa qismida* tadqiqot jarayonida olingan asosiy xulosa va takliflar berilgan.

## **I bob. O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning o'rni, ichki turizmning nazariy asoslari**

### **1.1. Turizmning asosiy kategoriyalari va me'yoriy-huquqiy bazasi**

Mamlakatimizda turizm faoliyatiga, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va qabul qilinmoqda. Mamlakatimizda turizmning ravnaqi, uni yangi pog'onalarga ko'tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mazkur yo'nalishga taa'lluqli qonun va kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarining yo'riqnoma, ko'rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilmoqda.

Agar qabul qilinayotgan asosiy qonun hujjatlarini o'rganadigan bo'lsak, ularning asosini "turizm to'g'risida"gi qonun tashkil qiladi. U 1999 yil 20-avgustda qabul qilingan bo'lib, 22 moddadan iborat. Unda asosiy umumiy qoidalar aks ettirilgan bo'lib, barcha farmoyish va qarorlar shu asosda ishlab chiqiladi. Bundan tashqari unda turizmning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) ga to'xtalib o'tilgan. Masalan 3-modda asosiy tushunchalar deb nomlangan[3].

Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- turizm va turistik industriyani rivojlantirish;
- fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash;
- turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;
- turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish;
- bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish;

- turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;
- turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mulki muhofaza qilinishini ta'minlash;
- turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Davlatning turizm sohasidagi siyosati davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

***Davlatning turizm sohasidagi siyosati*** – bu turizm industriyasini va turizm bozori subyektlarini (turoperatorlar va turagentlar) rivojlantirish, fuqarolarga turizm xizmat ko'rsatish shakllarini takomillashtirish hamda shu asosda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha davlat faoliyatidir.

Turizm siyosati O'zbekiston Respublikasining barcha hududida amalga oshiriladi, avvalombor mintaqa alohida subyektlar darajasida, undagi mavjud bo'lgan turizm bilan mintaqa iqtisodiyoti o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlatning turizm siyosati xalq xo'jalik kompleksini rivojlantirish va aniq maqsadlarga erishish uchun turizm sohasi faoliyatiga davlat ta'sirining shakllari, usullari va ta'sir qilish yo'nalishlari yig'indisidan iborat.

Turizmni rivojlantirishda boshqarish strategik tizimi samaradorligini oshirishga muayan choralarning kompleks ishlatilishini qo'llash orqali erishish mumkin. Hozirgi paytda respublikada 20 dan ortiq mahalliy va respublika darajasida turizm rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda va yirik loyihalar qabul qilinmoqda.

***Davlatning turizm siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:***

- turizm soxasining rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish;

- mintaqa darajasida va Respublika miqyosida turizmni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

**Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:**

- turizm industriyasi sohasidagi munosabatlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yaratish;
- ichki va jahon turizm bozorlarida turizm mahsulotini siljitishga hamkorlik qilish;
- turistlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash;
- turizm industriasida standartlash, litsenziyalash, turizm mahsulotini sertifikatlash;
- turizmni rivojlantirish manfaatlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasiga kirish, O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish va O'zbekiston Respublikasi hududiga tashrif buyurish tartiblarini belgilash;
- turizmni rivojlantirish respublika maqsadli dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga bevosita byudjet ajratmalarini ko'paytirish;
- turizm industriasiga investitsiyalar kiritish uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- soliq va bojxona tizimini tartiblashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi hududida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi va O'zbekiston Respublikasi hududida turizm bilan shug'ullanish uchun chet el fuqarolarini jalb etuvchi turoperator va turagentlarga imtiyozli kreditlar taqdim etish, soliq va bojxona imtiyozlarini berish;
- turizm faoliyatida kadrlar tayyorlashga hamkorlik qilish;
- turizm industriyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;



- xalqaro turizm dasturlarida O`zbekiston turistlari, turoperatorlari, turagentlari va ularning birlashmalari ishtirokiga hamkorlik qilish;
- kartografik mahsulotlar ta`minoti;
- O`zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda qo`llaniladigan boshqa usullar.

Turizm sohasiga oid ishlab chiqilgan ilk me`yoriy hujjat bu - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi «O`zbekturizm» MKni tashkil etish to`g`risida»gi Farmoni va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 20-oktyabrdagi «O`zbekturizm» MK faoliyatini tashkil etish masalalari haqida»gi qaroridir[142]. Mamlakatimizda jahon andozalariga javob beradigan turizm tizimini barpo etish, ushbu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo`lib kelgan va sobiq ittifoqqa bo`ysingan turistik tashkilotlar va muassasalarni respublika ixtiyoriga o`tkazish ushbu farmon va qarorning bosh maqsadi qilib olindi.

Mazkur farmon O`zbekistonda turizm sohasini takomillashtirish, uni yangi bosqichga ko`tarish, «O`zbekturizm» MK ni tuzish uchun dastur bo`lib xizmat qildi.

Keyingi yillarda ishlab chiqilgan muhim hujjatlar qatoriga O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi “Buyuk Ipak yo`lini qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmoni hamda mazkur farmonni amalga oshirish maqsadida e`lon qilingan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 3-iyundagi “O`zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini kiritish mumkin.

O`zbekiston tarixi uzoq, ajdodlari buyuk, madaniy merosi sermazmun ko`hna yurtlardan biridir. Ayniqsa, mamlakatimizni sharq va g`arbni bog`lab turuvchi «Buyuk Ipak yo`li» dagi belbog` sifatida yaxshi bilamiz. «Buyuk Ipak yo`li» 2200 ming yillik tarixga ega. Uning boshlanish nuqtasi Xitoy bo`lsa, oxirgi

nuqtasi Italiyadir. Bu yo`lni «Ipak yo`li», «Karvon yo`li» deb ham ataladi. Bunday nom berilishiga sabab, ipak mahsulotlari karvonlar orqali tashib o`tilgan, Shuningdek, bronza, chinni, jun xom-ashyolari va ulardan tayyorlangan buyumlar ham olib o`tilgan. «Buyuk Ipak yo`li»da nafaqat savdo-sotiq, shu bilan birga madaniyat, san`at, ilm-fan, ma`naviyat, ma`rifat, odobu-axloq, tinchlik, turizm, targ`ibot-tashviqot (reklama), talab va taklif (marketing) ham muttasil shakllangan, yuqori darajaga yetgan. «Buyuk Ipak yo`li»da ko`hna Turkiston hududi yetakchi o`ringa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Xo`jand, Chorjo`y kabi shaharlar esa muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Hozirgi O`zbekiston hududi bu yo`lning qoq markazida joylashgan. Sohibqiron Amir Temur davrida «Buyuk Ipak yo`li» keng rivojlangan. Shularni e`tiborga olib, qabul qilingan ushbu hujjatlar g`oyat muhim xalqaro turizm yo`nalishi - «Buyuk ipak yo`li»ni qayta tiklash, bunga xorijiy turistlarni jalb etish, shuningdek, mamlakatimizda zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadni qaratdi. Buning uchun esa: «Buyuk ipak yo`li»dagi shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo`yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo`l vokzallarida xorijiy turistlar uchun bojxona rasm-rusumlarining xalqaro me`yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona zonalarini, turistik tashkilotlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilish, imtiyozli kredit berish ko`zda tutildi.

Farmon va qarorlarning muhim jihatlaridan biri shu bo`ldiki, unda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo`yicha Idoralararo Kengash tuzilib, ushbu Kengash faoliyatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

- a) turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- b) jahon andozalari darajasida kichik va o`rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog`i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;
- c) sayr-tamoshalar zamonaviy industriyasini, madaniy va sport - sog`lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko`maklashish;
- d) noyob turizm imkoniyatlari va tarixiy - madaniy merosini keng ko`lamda

targ'ib qilinishi va maskanlashtirishni tashkil etish;

e) turizm tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish;

f) turizm sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash.

O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarishda Respublika Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida" gi Farmoni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu farmon millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda, xalqaro turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish, shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish maqsadida qabul qilinib, 2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tarkibi tasdiqlandi.

Farmonda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, turistik tashkilotlar xorijdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turizm maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona bojlari to'lashdan uch yil muddatga ozod qilinishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, «O'zbekturizm» MK tizimidagi korxonalariga xorijiy turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan turistik xizmat va qo'shimcha xizmat ko'rsatish huquqi berilib, buning uchun maxsus kassalar ochilishiga ruhsat berildi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar, Moliya va Madaniyat ishlari Vazirliklarining va «O'zbekturizm» MKning O'zbekiston Respublikasining AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi birliklarini joriy etishlariga ijozat berildi.

Ushbu Davlat dasturi olti bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'limining o'zi: "Turizmning me'yoriy - huquqiy bazasini shakllantirish",-deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida» gi Qonunini tayyorlash, fuqarolarimizning xorijga chiqishi va O'zbekistonga xorijiy fuqarolarning kirishi

haqidagi takliflarni o`rgangan holda, xorijiy turistlar uchun boj, viza va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish Nizomiga o`zgartirishlar kiritish; *Madaniy meros yodgorliklarining to`liq ro`yxatini tuzish va nashr etish*; yodgorliklarni noqonuniy tarzda olib chiqib ketgan va ularga ziyon yetkazilgan hollarda davlat, jamoat tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarliklari haqidagi tartibni tayyorlash vazifalari belgilab berildi. Mazkur bo`limda belgilab berilganidek “Turizm to`g`risida”gi Qonun 1999-yil 20-avgustda qabul qilindi, boj va viza hujjatlarini rasmiylashtirish Nizomiga o`zgartirishlar kiritildi, xullas barcha vazifalar to`liq amalga oshirildi.

Respublikamizda turizm sohasi bo`yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida **O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 30-iyundagi «O`zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to`g`risida»gi** Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta`minlash uchun O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 2-iyuldagi «O`zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq turizm rivojlangan viloyatlarda turizm kollejlari va oliy uquv yurtlarida sohaga mos yo`nalishlar ochilib, bugungi kunda yetuk kadrlar yetishib chiqmoqda.

Turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni yanada qo`llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro turistik bozorlarda faol kiritib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 10-oktyabr 2012-yilda “O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari” to`g`risida qaror qabul qilib, unda bir qator tartiblarni belgilab berdi. Unga ko`ra:

2012-yil 15-oktyabrdan boshlab turistik yig`im faqat sayyohlarni joylashtirish xizmatlari ko`rsatuvchi va turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziyaga ega bo`lgan turistik faoliyat subyektlaridan yashalgan har bir kun uchun 2 AQSH dollariga teng miqdorda undiriladi; turistik faoliyatning boshqa subyektlaridan turistik yig`im undirish bekor qilinadi; turistik yig`imdan

tushgan mablag`lar “O`zbekturizm” MK huzuridagi budjetdan tashqari Turizmni rivojlantirish jamg`armasiga yo`naltiriladi[143].

Shuningdek, 2014-yil 13-martda “Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziya tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” O`zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori tasdiqlandi. Qarorga ko`ra O`zbekturizm MKga turistik tashkilotlarga berilgan litsenziyalarni xatlovdan o`tkazish va ular yangi namunadagi litsenziyalar bilan almashtirilishini, turizm faoliyati subyektlari bilan birgalikda litsenziya bitimlarini Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi Nizomga kiritilgan o`zgartirish va qo`shimchalar bilan muvofiqlashtirish vazifalari qo`yildi. Bundan tashqari O`zbekturizm MK si tomonidan turizm tashkilotlari xodimlariga va gidlarga (ekskursavodlarga) malaka sertifikatini berish tartibi to`g`risidagi Nizomni, turizm xizmatlarini sertifikatlash qoidalarini, turizm xizmatlari ko`rsatish qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash ishlari ham yuklatildi[144]. Shuningdek qarorning 4-bandiga ichki turizm bilan shug`ullanishlari uchun litsenziya berish to`g`risidagi qo`shimcha kiritilgan. Bu qo`shimcha yurtimizda ichki turizm rivojlanish bosqichini yangi darajaga olib chiquvchi ilk qadamlardan biri bo`ldi.

## **1.2. Ichki turizmning nazariy asoslari**

Zamonaviy turizmni o`ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo`ladi. Jumladan, geografik belgilari, turistik oqim yo`nalishi, safar maqsadi, harakatlanish usuli bo`yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ichki turizm – mahalliy aholining o`z mamlakati hududiga turistik jozibador joylarga maqsadli ravishda uyushtirgan sayohatini qamrab oladi.

Kirish turizmi-mamlakat fuqarosi bo`lmagan shaxslarning mamlakat hududiga turistik maqsaddagi tashrifi, sayohati hisoblanadi.

Chiqish turizmi-bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga to`lanadigan faoliyat bilan mashg`ul bo`lmagan holda, unga sayohati, tashrifi tushuniladi.


Turizmning yuqoridagi bu uch turidan quyidagi kategoriyalar kelib chiqadi, bular:

Milliy turizm- bu o`zida ichki va chiqish turizmlarini birlashtirib, mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o`z mamlakatlarida yoxud xorijiy davlatlarga turistik maqsadlarda amalga oshirilgan sayohatlari kiradi.

Davlat miqyosidagi turizm- bu ichki va kirish turizmlarni birlashtirib, shu mamlakatdagi fuqarolar, shuningdek xorijiy fuqarolarning aynan bir mamlakat hududidagi sayohatlarga aytiladi.

Xalqaro turizm, - o`z ichiga kirish va chiqish turizmlarini qamrab oladi, ya`ni vaqtinchalik kelgan joyida haq to`lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish tushuniladi[177]. (1.1-chizma)

Bularning barcha bir chizmada yig`ilib turizm uchburchagini tashkil qiladi. Ba`zi mutaxasislar, masalan, turizm bo`yicha mutaxasis i.f.n, dotsent Ibragimov N. S tomonidan bu uchburchak “turizmning oltin uchburchagi” deb yuritiladi.



### 1.1-chizma. Turizmning asosiy kategoriya va turlari

**Manba:** Приложение к постановлению Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике от «18» января 2012 г. № 1

Shuningdek, "turistlarni qabul qilish" va "turistlarni jo`natish", - kabi umumiy tushunchalar ham bo`lib, bular ichki va xalqaro turizm uchun ham taalluqlidir. Turizm statistikasida "turistik tashrif" atamasi ham mavjud. Aynan turistik tashrif soniga qarab turistik oqim belgilanadi. Turist tushunchasining ichki tabiatidan kelib chiqib aytish mumkinki, turist biror joyga keldimi, demak, u mazkur joydan o`zining mamlakatiga yoki doimiy istiqomat joyiga ketishi ham kerak. U vaqtinchalik kelib - ketuvchidir.

Turizm statistikasida tranzit turist tushunchasi ham bo`lib, unda turistlarning o`z davlat hududidan ikkinchi davlat hududiga borayotganda oradagi davlat hududida to`xtab o`tishi tushuniladi. Bunday davlatlararo tranzit turist bo`lish uchun maxsus tranzit vizalar ham bo`lishi lozim. Tranzit turistlarning mamlakatda bo`lish muddatlari chegaralangan.

“Turistlarni qabul qilish” kategoriyasi - mazkur hududga yoki turistik markazga turistlarning kelishi va ularga ko`rsatiladigan xizmat faoliyati bo`yicha xarakterlanadi. Ushbu faoliyatdan turizmni tashkil qilish bo`yicha barcha turizm infratuzilmasi - transport yuklarini tashuvchilar, mehmonxonalar va restoranlarni ish bilan ta`minlash kelib chiqadi. Ko`rsatilgan xizmatlar natijasida milliy (xorijiy turizm orqali esa xorijiy) valyuta massasi ko`payadi. Turistlarni qabul qilishda turistik region yoki markazda ishchi o`rinlari tez tashkil etiladi, mahalliy turistik resurslardan foydalanish hisobiga regionda iqtisodiyot rivojlanadi. Ichki va xorijiy turistlarni qabul qilish balansi tarkib topadi.

Turizmning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy - siyosiy omillariga bog`liq. Shu bilan birga turizmdan tushadigan xorijiy valyuta davlat iqtisodiyotining o`shishiga ta`sir etadi. Respublikamiz Mustaqillikka erishgach ular o`rtasidagi farq kamaydi va bir qator tarixiy shaharlardagi turistik markazlar va firmalar uchun turizm juda katta daromad manbai bo`lib qoldi.

“Turistlarni jo`natish” ham muhim kategoriya hisoblanadi. Bunday faoliyat doimo pul massasini boshqa region yoki xorijiy davlatlarga chiqib ketishiga olib keladi. Shu boisdan, turistlarni jo`natish hech qachon mahalliy hudud uchun ham, turistik agentliklar uchun ham ustun soha bo`lmagan. Xuddi mana shuni e`tiborga

olib, davlatlar ichki turizmni rivojlantirishga va turistlarni jo`natishga to`sqinlik qiluvchi qattiq iqtisodiy to`siqlarni o`ylab topishadi.

Shularni esdan chiqarmaslik kerakki, turistlarni jo`natish ham, yoki turistlarni qabul qilish ham mahalliy xazinani soliq bilan to`ldirish imkonini beradi.

Ichki va kirish turizmning rivojlanishidagi ayrim muammolar va ko`rsatkichlar:

Rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg`un holatda taraqqiy etadi, ichki va qabul qilish turizmida balans mavjud. Ichki turizm milliy turistik resurslardan unumli foydalanish va turizm industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Ammo, amaliyotda hamma mamlakatlar ham bunga qodir emaslar. Albatta, bu mamlakat iqtisodiyotining turizmga bog`liqligida, ya`ni turizmsiz yashay olmaydigan, iqtisodiyoti turizm bilan bog`liq mamlakatlarga bunga amal qiladilar. Ayrim mamlakatlar ichki davlat tuzumi bahonasida fuqarolarining xorijga chiqishini chegaralab qo`yishadi yoki turistik faoliyatni davlat tomonidan boshqarish uchun choralar kiritishadi. Ya`ni, davlatning ruxsatisiz biror yerga chiqish juda qiyinlashadi, turizmni boshqarish roli davlat qo`liga o`tadi.

Yer yuzidagi juda ko`plab davlatlarning aholisi turizm maqsadida xorijga chiqishga qodir emaslar. Asosiy sabab olinadigan maoshning kamligi yoki aholining kambag`alligidir. O`zbekiston ulkan tabiiy va madaniy - tarixiy resurslari bilan xohlagan turistlar talabini qondirishi va kelajakda ulkan turistlar oqimini kutib olish imkoniyatiga egadir. Lekin, turizm industriyasini yanada rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yuqoriga ko`tarish, turizmga investitsiyalarni ko`proq jalb etish, turizmda servisni zamon talablariga moslashtirish, xizmat ko`rsatuvchi subyektlardagi xizmat narxini pasaytirish, ularda o`zaro raqobat muhitini yaratish, xorijga chiqish va xorijdan kelish vizalarini olishdagi mexanizmni soddalashtirish, malakali kadrlarni yetishtirish bilan bu ishga yanada ko`proq hissa qo`shgan bo`lamiz. To`g`ri, keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlariga hukumatimiz va xorijiy investorlar



tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablag`lar ajratildi. Yirik mehmonxonalar qurildi, modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabidagi avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Yirik turistik markazlar, yodgorliklar ta`mirlandi, yo`llar barpo etildi. Xususiy mehmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib, mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib bormoqda. Rekreatsion hududlar, masalan, Chorbog` - Chimyon hududiga respublika byudjetidan katta mablag` ajratildi. Madaniy - tarixiy yodgorliklarni ta`mirlash ishlari davom etmoqda. Bulardan mustasno bo`lmagan holda respublikamizda ichki turizm sekinlik bilan rivojlanmoqda. Lekin ba`zida respublikamiz aholisining aksariyat qismi butun dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba bo`lsa ham ko`rish imkoniyatiga ega bo`lmaganlarini uchratamiz. Bunga sabab faqatgina ularning iqtisodiy cheklovlari emas, balki sayohat qilish madaniyatini bilmasligida va uning qanchalik inson hayotida muhim o`rin egallashi kabilarni his qilmasligidadir. Bunday tajribaga ega bo`lish uchun esa aholimiz albatta soha mutaxasislari, turoperatorlar ko`magidan foydalanishlari shart, chunki ular sayohat qilish etiketidan xabardor bo`lib, uni yuksak darajada ko`rsata olishadi. Shu bois, ichki turizmni rivojlantirish, aholimizning turizm va dam olish ehtiyojlarini to`laroq qondirish uchun turistik resurslardan maksimal tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mustaqil respublikamizga xorijiy turistlar kelishiga ham katta e`tibor berishimiz kerak. Shundagina, davlatimiz xazinasini va turoperatorlarning banklardagi hisob - raqamlariga milliy va xorijiy valyuta kelib tushishiga erishamiz. Buning oqibati esa ravshan - iqtisodiyotimiz rivojlanishiga ko`maklashgan bo`lamiz, tadbirkorlik subyektlarining farovonligi ortadi, turmush tarzi ko`tariladi.

Bu jarayonda sayyohlik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni

qo'llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yo'nalishdan iborat bo'lib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlang'ich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlari tanlab olingan. Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion – dam olish va sog'liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi ko'plab resurslar mavjud. Hududning tog' ekotizimi, arxeologik yodkorliklari u yerda ekologik, speleologik (g'orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang'ida uchish, piyoda sayohat, tog' velosipedini rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qiziqarli ikki turistik yo'nalish ishlab chiqildi. Sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shoxobchalari bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. Arxeologik yodkorliklarga eltuvchi avtomobil yo'llarida o'zbek, rus va ingliz tillarida yo'l ko'rsatkichlar o'rnatildi.

Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamlı ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o'z sayohatlarini mazmunli o'tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo'lib qo'shilmogda.

### **1.3. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy sohalarida turizmning ahamiyati.**

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmni isloh qilish, uni shakllantirish jarayoni amalga oshmogda. Ushbu jarayon mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini

ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadilar. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zaminni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanadi. Davlat kadrlarni tayyorlash masalasi, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot - reklama faoliyati bilan jiddiy shug'ullanib, rasmiyatchilikni soddalashtirish evaziga turizmdan kutilgan rivojlanish darajasiga erisha oladi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishiga qadar turizmning barqaror taraqqiy etayotganligi va uning istiqboli, ushbu sohani "kelajak industriyasi" sifatida e'tirof etishga asos bo'lgan edi. Mamlakatimizda turizm faoliyati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida talqin qilinib, unga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu boradagi ishlar hozir ham davom etmoqda.

Hozirgi paytda turizm sohasining umumiy rivojlanishi va raqobatbardosh turistik mahsulot yaratish maqsadida, tarmoqda zaruriy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning turizm sohasidagi islohotlarni shartli ravishda ilmiy adabiyotlar to'rt bosqichga ajratiladi. Ularga ko'ra:


**Birinchi bosqichda** tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistik

korxonalarni litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. 1992 yilda respublikada «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida barcha tashkiliy, boshqaruv hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993 yilda «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi Butunjahon turistik tashkilotga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirdi va bu o'z navbatida xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. 1994 yilda BMTning YUNESKO tashkiloti hamda, O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Bu bosqich mobaynida, ya'ni 1994 yilda ishlab chiqilgan “Turistik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi” chuqur tizimli - institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994-1995 yillar mobaynida “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasining 87,8% turistik obyektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi.

Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirish» to'g'risidagi Farmoni[8]. Buyuk Ipak yo'lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik harakterga ega bo'ldi. Bu o'z navbatida O'zbekiston turizmi sohasidagi islohotlarning **ikkinchi bosqichini** boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlar va turistik manzillar ro'yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad al-Farg'oni, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A'zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg'unoniy, Buxorodagi Chor Bakrlari kabi allomalarimizning maqbaralari ta'mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi, Toshkent shahrida muntazam ravishda xalqaro turistik yarmarka tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o'rinlar soni 4,8 barobarga ko'paytirildi. O'zbekistonda 2013-yil holati ma'lumotlariga ko'ra, jami turistik

faoliyat bilan shug'ullanadigan mehmonxonalarning soni 426 tani tashkil etgan. Shuningdek, 534 ta turfirma va turistik tashkilotlar mavjud.



**1.2-chizma. O'zbekiston Respublikasi 2013-yilda xizmat ko'rsatgan turistik firmalar**

**Manba:** O'zbekturizm MK tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Hozirda yurtimizdagi turoperatorlarning asosiy qismi Toshkent shahrida faoliyat yuritadi va foydaning katta qismi ham shu shahar budjetidan o'rin egallaydi. Hozirda Samarqand va Buxoro shaharlarida ham xalqaro va ichki turizm bilan shug'ullanuvchi turistik operatorlar oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida bozorda raqobatning vujudga kelishi va turmahsulot sifati oshishi uchun xizmat qiladi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **uchinchi bosqichida**, ya'ni, 1999 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston turizmini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo'lga qo'yildi hamda dunyo bozori bo'yicha raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo'yildi. Ko'pchilik turistik obyektlar o'zlarini o'zlari boshqara boshlashdi, xizmat bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, samarali ishlovchi yangi korxonalarga o'rin ochib berildi.

2000 yildan boshlab, Respublikamiz turizmi yuqori sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Turizmdan olinayotgan daromadlar yiliga 30 va undan ortiq foizlarda o'sdi. 2001 yil oxirida Afg'onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarining boshlanishi O'zbekistonga kelayotgan turistlar oqimini ikki yil davomida ancha kamaytirib yuborganidan so'ng, 2003 yilning 2-yarmiga kelib o'lkamiz turizmi yana o'zini o'nqlab oldi. Sharqiy Osiyoda o'tgan yillarda tarqalgan odatdan tashqari Pnevmaniya (Sars) va Parranda gripi kabi kasalliklar O'zbekiston turizmiga 2001 yil 11 sentyabr voqealaridek kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.


Hozirgi paytda turizm sohasidagi islohotlarning **to'rtinchi bosqichi** boshlangan bo'lib, unda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasining bir qator vakolatlarini o'tkazish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu o'lkamiz turizm bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarimizning yanada tezroq sur'atlarda rivojlanishlariga yordam beradi.

Har qanday sharoitda, xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat muhim o'rin egallaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotida turizm sohasining ahamiyatini oshirishga harakat qilishadi. Chunki, turizm milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi ustuvorliklarga ega:

- a) mahalliy ishchi kuchlarini malakali mehnat va yashash sharoitlari bilan ta'minlash manbai;
- b) turizm bozorni shakllantirish hamda kapital investitsiyalarning oqib kelish mexanizmi, bu sohada raqobatbardoshlikni kuchaytirib, turizmni rivojlantiradi;
- c) qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), kommunikatsiya (uyali aloqa, telefon va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro andozolardagi temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (avto yoqilg'i quyish shahobchalari) kabi sohalarga yangi texnologiyalar va nou-xau joriy etish vositasi;
- d) milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari;

- e) mamlakatda va hududda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirish omillari;
- f) tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni asrash usullari;
- g) davlatga valyuta tushumlarini samarali oshirish vositalari.

Yuqoridagi ustuvorliklar bilan birga boshqa sohalar rivoji uchun ham turizm ahamiyatli hisoblanadi. Mustaqilligimizdan so`ng hukumatimiz buni anglagan holda turizm rivojlanishi uchun birin-ketin imkoniyatlar eshigini ochib bergan bo`lib, bu chora tadbirlar o`z ijobiy natijasini bermoqda. Shu o`zgarishlarning asosiy qismini xalqaro turizmga kuzatish mumkin bo`lsa, so`ngi yillarda nafaqat xalqaro, balki milliy turizmga ham katta o`zgarishlar kuzatilmoqda. Yurtboshimiz boshchiligida yoshi ulug` otaxon va onaxonlarimizning haj safarlarini yo`lga qo`yish xalqimizda ziyorat qilish orqali ziyorat turizmiga qiziqishni uyg`otdi. Shuningdek shaharlarimiz, tumanlarimiz markazlari va atroflarida qilinayotgan obodonchilik ishlari orqali ko`chalar, guzarlar, bog`lar go`zallashib, chiroy ochib bormoqda. Albatta bular ham sayohat sanoatining rivojlanishi bilan chambarchas bog`liq. Shuning hisobiga mahalliy sayyohlarning sayohat qilishga imkoni ko`payib, ular soni ortishi bilan birga xorijiy sayyohlarning tashrifi yildan-yilga ortib, soha rivoji uchun ulkan hissasini qo`shmoqda.



**1.3-chizma. O`zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning soni**

**Manba:** "O`zbekturizm" MK si ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“O`zbekturizm” MK ning ma`lumotlariga qaraganda agar 2006-yilda 559460 xorijiy sayyoh O`zbekistonga tashrif buyurgan bo`lsa, 2014 yilga kelib turistlar soni 1.900.000 ga yetgan. 1.3-chizmada yurtimizda turistlar oqimi va sonining oshayotganligidan darak beradi. Bu esa iqtisodiyotimiz rivoji, shaharlar-tumanlarning obod bo`lishi va kishilarning ish bilan band bo`lib, turmush darajasi ko`tarilishiga juda katta hissa qo`shadi.

Turizm industriyasi O`zbekistonning jahon bozorida mavqei oshirishga ko`maklashadi. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur`atlar bilan o`sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarining barpo etilayotganligi, ishchi o`rinlari sonining ko`payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko`payayotganligini ta`kidlab o`tish joiz deb hisoblaymiz. Albatta O`zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o`ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg`ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog` tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog` daryolariga boy. Tog`ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko`pligi, ajoyib tog` manzaralari nafaqat O`zbekiston fuqarolarining, balki Qozog`iston, Qirg`iziston va Tojikiston kabi qo`shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O`zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan hududlardan biridir. Chimyon va To`rtko`l kabi tog` - chang`i sportini rivojlantirish mumkin bo`lgan bir qancha tog` maskanlari mavjud. Baland qorli tog`lar, alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog` turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning ko`pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o`simliklar yig`ish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Bu esa ko`plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg`otadi.


Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma`naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e`tibor berib, ma`lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo`lganliklari



uchun foydalanadilar. Bu ham turizmning o`ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o`tishda, soliq to`lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, avia va temir yo`l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo`ladi. Shunday qilib, turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o`ziga xos xususiyatlarga ega. Bulardan tashqari turizm mamlakat hayotiga sezilarli darajada ta`sir qiladi. Turizmdan birinchi galda turistlar foyda qiladilar, ya`ni ularning dunyoqarashi kengayadi, jismoniy jihatdan sog`lomlashadi va ma`naviy boyligi ko`payadi, atrof muhitni idrok qilish bilan ular ta`sirlanish orqali rohatlanadilar.

Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta`minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo`ladilar va ularning turli an`ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo`ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo`ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o`zlarining an`ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an`analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik an`analarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham muttassil o`sib boradi. Yuqoridagi fikrlarimiz isboti sifatida 2014 yilda turizm sohasida ish bilan doimiy band bo`lgan ishchilar soni 118500 kishiga yetgan va bu umumiy ish bilan band aholining 0,8 % ni tashkil qiladi. Bu ko`rsatkichlar esa yildan yilga ijobiy tomonga o`zgarib bormoqda. Shuningdek, turizmni rivojlantirish evaziga o`z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko`payishini ta`minlaydi. Masalan, aniq misol qilib budjetimizga turizmdan tushayotgan tushumlar 2014- yilda 1,317.1 mlrd so`mni tashkil qilganligida ko`rishimiz mumkin, bu ko`rsatkich YaIM ning 0.9% ni tashkil qiladi[84]. Tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta`minlashga muvaffaq bo`linadi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko`payadi va h.k. Atrof muhitga ham turizmni rivojlantirish katta foyda beradi. Xususan, mamlakatning biomaydoni asl hoida saqlanishiga harakat qilinadi,

ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirlari qo'llaniladi, turistlarning tabiat resurslaridan rohatlanishi uchun foydalaniladi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug'diradi, suv, havo, o'rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



**1.4-chizma. O'zbekiston Respublikasida 2010-2014-yillarda turizm eksporti (ming dollar hisobida)**

**Manba:** "O'zbekturizm" MK si ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1.4-chizma orqali 2010-2014-yillarda turistik xizmatlarning eksportidan tushgan mablag` dinamikasini kuzatish mumkin. Bunda 4 yilni ichida turizm eksporti qarib 4 marta oshganini ko`ramiz.

2013-yilga nisbatan 2014-yil ko'rsatkichlarining 5.5% ga kamayganiga quyidagi sabablar mavjud: bular jahonda yuz berayotgan jahon moliyaviy inqirozining haligacha ta'siri; qo'shni mamlakatlardagi notinch siyosiy ahvol; terror xavfi; turli xil vabo va kasalliklarning tarqalishi; raqobatchilarning kuchli narx siyosati.

Hozirgi kunda turizmning iqtisodiy jihatdan muhimligini anglagan ko'pgina davlatlar turistlar oqimini jalb qilish maqsadida mahalliy, milliy va xalqaro darajalarda raqobat yuritmoqdalar. Biz ham yurtimizda destinatsion marketing va 6A modeli asosida raqobatbardosh turizm bozorini shakllantirishimiz zarur. Ya'ni, **access**-mavjud diqqatga sazovor joyga ortiqcha to'siqlarsiz (transport bilan bog'liq) yetib kelish; **attractions**-diqqatga sazovor

joylar; **accomodation**-turar-joy maskanlari; **amenities**-sayohat qilish mobaynida turistik dastur bilan birga uyg`unlashgan qulayliklar va xizmatlar (restoran, savdo markazlari, teatr, kino, sport va boshqalar); **ancillary services**-turistik sayohatlarni, ekskursiyalarni tashkil qilish jarayoni uchun doimiy muhim sanaladigan tashkilotlar (aloqa kompaniyalari, pochta, ichki ishlar vazirligi, davolanish maskanlari va boshqalar); **assemblage**-tur mahsulotni yaratishda qatnashadigan, xususan turoperator va destinatsion marketing tashkilotlari, barcha korxonalarining vertikal, gorizontal va bevosita, bilvosita aloqalarini nazarda tutadi[93].

### **I bob bo`yicha xulosa**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan siyosat turizmni sohasini qo`llab quvvatlamoda. Bugungi kundagi turizmga bo`lgan ehtiyoj ortib borib, infratuzilma rivojlanib, shaharlar ko`rkamlashib, zamonaviy bilimga ega kadrlar yetishib chiqmoqda, kishilarning madaniy ehtiyojlari qonmoqda. Bu imkoniyatlar turizm bozorida raqobatning kuchayishi va raqobatbardosh turmahsulotlarning yaratilishiga sabab bo`lib, madaniyatimiz, tariximiz, urf-odatlarimizni dunyoga tanitmoqda.

Shuningdek ichki turizmning rivojlanishi uchun me`yoriy huquqiy ba`zasi ham kundan kunga shakllanib, sohada ishlovchi turoperatorlarga imtiyozlar berilmoqda. 2014-yil 13-martdagi qarorning 4-bandiga ichki turizm bilan shug`ullanishlari uchun litsenziya berish to`g`risidagi qo`shimcha kiritilgan. Bu qo`shimcha yurtimizda ichki turizm rivojlanish bosqichini yangi darajaga olib chiquvchi ilk qadamlardan biri bo`ldi.

Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o`z sayohatlarini mazmunli o`tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo`lib qo`shilmoqda.

## **II bob. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda ichki turizm sohasidagi o`zgarishlar**

### **2.1 O`zbekistonda ichki turizm industriyasi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari**

So`ngi yillarda ichki turizmning ahamiyati har qanday davlatning iqtisodiyotida ko`rinib qolmoqda. Hattoki shunga qaramasdan ba`zi davlatlar uning hajmiga past nazarda qarab statistik hisoblar chetda qolmoqda, asosiy e`tiborni esa xalqaro turizmga qaratishmoqda. Chunki mavjud muammolardan biri ichki turizmga chegara postlari kesib o`tilmaydi va hech qanday anketalar to`ldirilmaydi. Bu esa ichki turizm statistikasini yuritish uchun boshqa usullardan, jarayonlardan foydalanish kerakligini ko`rsatadi. Turizmga statistik ma`lumotni beradigan asosiy manbalardan biri bu turistlarning tunashi hisoblanadi. Ammo, tunashlar soni ham ichki turistlar hajmini bilishda muammolarga uchramoqda. Masalan ichki turizmga qolgan turistik oqimlarning sonini aniqlash imkoniyati mavjud emas (do`st, qarindoshining uyiga tashrif va boshqa sayohatlar). Buni faqatgina tashrif buyuruvchilarning sayohati davomida turli xil anketali kuzatishlar yoki intervyular orqali aniqlash mumkin.

Turli xildagi anketali kuzatishlar orqali ma`lumotlar olish foydaliroq va mos keladigan yo`l hisoblanadi, chunki bu turdagi anketalar ularning jo`g`rofiy makonlari, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatlariga qarab olinadi va ichki turizm tashriflari va u bilan bog`liq xarajatlar to`g`risida aniqroq va maqsadga muvofiq keladigan ma`lumotlarni beradi. Shuningdek bir kunlik va bir kundan ortiq bo`lgan tashriflar to`g`risida atroflicha ma`lumot beradi.

Tadqiqotlar anketasining ko`rinishi va hajmi hisobning to`g`riroq chiqishi uchun juda muhim. Agar biz ichki turizmni analiz qilmoqchi bo`lsak ikki narsani hisobga olishimiz shart: 1-mamlakat bo`ylab turizmning noteng holati, 2-aholining kelib chiqishi va turizmga bo`lgan munosabatiga e`tibor qaratish kerak.

Bunday anketali kuzatishlar orqali tadqiqotlar vaqtida biz sayohatlarning borish, tugashi, shuningdek faqatgina tashriflarni emas, balki kuzatishlar davomida ularning boshlanish va tugash nuqtalari to`g`risida ma`lumotlar olish

imkoniyatiga ega bo`lamiz. Bu esa bizga tashrif buyuruvchilarning holati va turizmga munosabati to`g`risida kengroq (globalniy) ochib beradi.

Kuzatuv anketalari bilan tadqiqotlarni olib borishda turizmga oid bo`lganda, asosiy kalit so`z bu “sayohat” bo`ladi. Birgina tunashlar soni statistikasidan biz turli tuman ma`lumotlarni aniqlab olamiz, masalan, mamlakat hududi bo`ylab tunashlar soni, tunashlar uzoqliligi kabilarni aniqlash imkonini beradi.

Tunashlar to`g`risidagi statistik ma`lumotlar esa bizda bugungi kunda faqatgina haq to`lanadigan korxonalar va mehmonxolardan olinmoqda va shu yerlardagina turistlar ro`yxatdan o`tadi. Ammo shunday tashriflar borki ya`ni do`stlarning uyiga, qarindoshlarnikiga, dachalarga, yoki xususiy uylarda tunab qolish statistik ma`lumotlarga kirmay chetda qolib ketmoqda. Shuningdek bazi bir aholi punktlarida uylarda tunash xizmatini taklif qilinmoqda, lekin ro`yxatga olinmaydigan holatlar ham bo`lmoqda. Asosan tranzit nuqtalarda shunga o`xshash vaziyatlar uchraydi yoki hammani ham ro`yxatga olmay, ro`yxat sonini kam ko`rsatishga harakat qilinadi, bu esa ichki turizm uchun to`g`ri statistik ma`lumotni ololmaslikga sabab bo`lmoqda.

**Tashrif buyuruvchilarning hajmini aniqlashda Qozoqiston respublikasi milliy tajribasi (ichki turizm).** Qozoqistonda ichki turizmning statistikasi to`g`risida ma`lumot olinadigan manbalardan biri bu Davlat statistika kuzatuv tomonidan olib boriladigan “Tunash joylaridan olinadigan hisobot” statistik formasi hisoblanadi. Bu forma iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar va yakka tartibdagi korxonalar(joylashtirish xizmatini taklif qilayotgan) tomonidan olinadi.

Statistik kuzatishlar esa barcha joylashtirish joylari, joylashtirish bilan faoliyat yuritadigan korxonalar soni, qisqa vaqt davomida joylashtirish imkoniga ega xizmatlarni bilish imkonini beradi. Tunash joylari esa quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Xizmat ko`rsatish mehmonxonalarini
2. Dam olish kunlarida boriladigan va boshqa qisqa muddatli yashash joylari
3. Kemping maydonlari, rekreatsion autoparklar va tirkamali parklar

#### 4. Boshqa tunash joylari.

Boshqa turdagi yashash joylariga talaba va maktab o'quvchilari yotoqxonasi, ishchilar pasyolkasi va temiryo'l poyezdlarining uxlashga moslashtirilgan vagonlari kiradi va bularga turistlar ham tunashi mumkin. Masalan: talabalar yotoqxonasi akademik ta'til vaqtida kichik mehmonxona sifatida tunovchi turistlarga xizmat qilishi mumkin.

Tunash soni orqali statistikani olib borish xalqaro tarjibada ham asosiy o'rin egallaydi. Masalan, Germaniya davlatida asosiy e'tibor ham shunga qaratilgani uchun, birgina tunash joylari to'g'risida to'liq ma'lumot olish maqsadida qo'shimcha ravishda tunash maskanlarining geografik joylashuvi, elektron pochta, joylashgan joyi va tunash joyi tipi, nomi, mehmonxona turi, mehmonxonaning ishlash mavsumi, nomerlar soni yoki yakka faoliyat yurituvchining ma'lumotlari, ijaraga beriladigan uylar va dacha, yaxtalar hisobga olinadi va kategoriyalarga ajratiladi[81]. Bu olinadigan ma'lumot esa hisobot olinadigan davrda ma'lumotlarning to'liq kelishini ta'minlaydi. Milliy tajribada ham buni qo'llash mumkin, albatta bunda qo'shimcha omillarga ham e'tibor qaratilishi lozim.

Sayohatini o'zi tashkil qiluvchilar sonini aniqlash uchun (ichki turizmida bizni mamlakatimizda-uyni ijaraga beradigan xususiy kvartira va uylar) tanlanma kuzatuvlarni olib borishga to'g'ri keladi. Tanlama kuzatuv-bu qisman kuzatish usuli bo'lib, bunda to'plamning hammasi emas, balki ma'lum tanlash qoidalari asosida ajratib olingan va butun to'plamni umumiy holda xarakterlay oladigan uning bir qismidir[42]. Tanlanma kuzatishda to'plamning oldindan belgilangan ma'lum qismi, masalan 1/10, 1/20, 1/50 va h.k. qismi tekshiriladi va tekshirish natijalari butun to'plamga tadbiq etiladi.

Bunday kuzatish quyidagi maqsadlarda qilinadi:

- Vaqt va mablag'ni tejashda;
- Kuzatish jarayonida sifati buziladigan yoki qiymatini butunlay yo'qotadigan birliklar miqdorini qisqartirishda;

- Umumiy to'plam haddan tashqari ulkan bo'lib, uni yoppasiga kuzatish imkoniyati bo'lmaganda;
- Kuzatish obyektini to'laroq, chuqurroq o'rganishda;
- Yoppasiga kuzatish natijalarini tekshirish va nazorat qilishda.

### **Ichki turizmda tadqiqotlarini olib borishdagi umumiy yondashuvlar.**

Har bir mamlakatda, ichki turizm tufayli milliy daromad qayta taqsimlanadi va milliy iqtisodiyotning muvozanatini yaxshilash uchun o'z hissasini qo'shadi. Ichki turizm ham umumiy manfaatlariga tayangan holda bir butun sifatida mamlakat iqtisodiyotida qulay faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Ichki turizmning muhim afzalliklaridan biri bu u turizm sanoatining himoyachisidir, chunki xalqaro turizmga talab kamayib ketganda ichki turizm o'rin bosuvchi bo'lib, unga teng talabni shakllantira oladi.

Ichki turizm ham ichki, ham kirish turizmi o'sishi uchun munosib muhit yaratib, milliy daromadni qayta taqsimlash bilan milliy iqtisodiyotning mutanosibligi yaxshilash uchun hissa qo'shadi.

Ichki turizm mamlakatning turli hududlarida yashovchi turli xil tilga ega, diniy va milliy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunishni taminlash uchun yordam beradi, kuchli birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan, u milliy birlik va madaniy integratsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Xalqaro tajribada ichki turist- faqatgina o'z mamlakati chegarasi bo'ylab, o'z turar joyidan boshqa joyga sayohat qiluvchi shaxsgina hisoblanadi. Quyidagi sayohatchilar ichki turizm sayohatchilari hisoblanmaydi:

1. Doimiy yashovchi shaxslar, shu davlatning boshqa joyiga doimiy yashash maqsadida tashrif buyursa;
2. Shaxs, ma'lum bir ish faoliyatini boshlash yoki amalga oshirish maqsadida shu mamlakatning ma'lum bir hududiga borsa va uning qilgan xarajatlariga to'lovlar ishlash joyi tomonidan amalga oshirilsa;
3. Shaxs, vaqtinchalik ishlash maqsadida mamlakat hududida joylashgan ma'lum bir muassalarga borsa;

4. Shaxs, doimiy va tez-tez qo'shni aholi punktlariga, qarindoshlarinikiga, do'stlarinikiga va ziyorat qilishga borib tursa;
5. Ko'chmanchilar va ma'lum bir yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar;
6. Harbiy xizmatda bo'lgan askarlar kabilar ichki turizm bilan bog'liq deb hisoblanmaydi.

Ba'zi mamlakatlarda, sayohatchi o'zining ta'tili davomida yoki safari davomida ona shahriga borishi, oila va do'stlar bilan uchrashi, ijtimoiy va diniy tadbirlarda ishtirok etishi va boshqa kabilar ichki turizm deb hisoblanmaydi, shuningdek agar u o'zining shaxsiy uyi yoki yaqin tanishlarinikida qolsa ham. Bu esa quyidagicha fikrlashga olib keladi ya'ni bunday sayohatchilar diqqatga sazovor joylarga (turistik) tashrif buyurmaydi va ichki turist deb statistikaga kiritilishi esa ichki turizm kengaytirib, oshirib ko'rsatadi.

Ichki tashrif buyuruvchilarning hisobini aniqlash qiyin hisoblanadi. Shubhasiz, ichki turistlar hisobini aniqlash faqatgina so'rovlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunda asosiy farq xalqaro va ichki turistlar hisoblanadi. Xalqaro turistlar sonini aniqlashda mavjud (masalan, chegara xizmati, O'zbekturizm xalqaro turistlar sonini ro'yxatga olishlar orqali aniqlashadi.) vositalar orqali amalga oshirish mumkin. Shuningdek mahalliy turistlar hisobi uchun bunday vositalar mavjud emas, bu esa ma'lumotlar yig'ishda muammoga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot kuzatuv anketalari, tanlanma anketalari, so'rovnomalari orqali amalga oshiriladi. Tanlama anketalari turli geografik hududlarda yashayotgan odamlarning sayyohlik xulq-atvorlarini belgilash uchun qulay usul bo'lib, turli sayyohlik maskanlariga ichki turizm talabni o'lchashga ham yordam beradi.

Demak, ichki turizm miqdorini aniqlashda quyidagi usullardan yoki metodlaridan foydalanishimiz mumkin:

1. Telefon orqali so'rovlar o'tkazish.
2. Pochta orqali so'rov yoki o'z-o'zini ro'yxatga kiritish orqali.
3. Shaxsiy, yuzma-yuz so'rovlar orqali (intervyu).



Ba`zi davlatlarda tajriba sifatida telefon orqali so`rovlar paytida anketalar ham to`ldirilib ko`rildi (masalan, Australiyada har yili 200 mingga yaqin 15 yoshdan kattalardan telefon orqali intervyu olinadi[49]). Shu bilan bir vaqtda, telefon orqali anketa to`ldirayotganda iloji boricha qisqa kamroq savollardan iborat bo`lishi kerak. Bundan tashqari, telefon orqali sayohat davomida sayohatchilar tomonidan qilingan xarajatlar haqida ma`lumotlarni yig`ish qiyin. Bu so`rov usulining asosiy afzalligi uning kam xarajat qilishi va yuqori tezligi hisoblanadi.

Tadqiqotlar uchun eng ko`p tavsiya qilingan kuzatuv anketalardan biri bu intervyu shaklidakidir, chunki yuzma-yuz anketalar orqali kerakli, aniq va ko`proq ma`lumot olish imkoniga ega bo`lasiz. Bu usul deyarli barcha turizm rivojlangan davlatlarda milliy darajada imkoniyati mavjud. Tajribali intervyu oluvchi korespondentlar bilan osongina aloqaga kirishadi va muhim ma`lumotlarni olib biladi. Bu usul oldindan reja qilishni, juda katta tashkillashtirilgan ishni va juda ko`plab intervyu oluvchilarni talab qiladi.

Har qanday tanlanma anketalarning tadqiqotlar jarayonidagi asosiy vazifasi mehnat qobiliyatiga ega bo`lgan ma`lum tuman aholisining qilgan tashriflari hajmini o`rganishdir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotga quyidagilarni tahlil qilish vazifalari yuklatiladi:

1. Muayyan hududlarda amalga oshirilgan tashriflarning hajmini baholash;
2. Turistik tashriflarning aniq motivlari va sabablari aniqlash;
3. Hududlardagi aholining turizmga bo`lgan munosabatini o`rganish;
4. Sayyohlar oqimi va asosiy sayyohlarni qabul qiladigan markazlarni aniqlash;
5. Turli xil turistik mahsulotlar va turistik faoliyatga qo`yiladigan talablarini tahlil qilish;
6. Tashrif buyuruvchilarning muayyan demografik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash;
7. Mahalliy aholining umumiy qilgan xarajati hisobi va sayohati davomida unimalarga sarf qilganini aniqlash;

8. Malum bir regionda ichki tashriflardan qilingan daromadlar hisobini baholash;
9. Umumiy maishiy iste'molda turizm xizmatlari iste'moli o'rnini aniqlash;

**Ichki turizmda tadqiqotlarida olib borishda so'rov-anketalarning o'ziga xos xususiyatlari.** Ichki turizm statistikasi tadqiqotlarning sifatini oshirish maqsadida, ko'pgina davlatlar, masalan qo'shimiz Qozoqiston Respublikasida Germaniya statistik offisi tajribasidan foydalaniladi.

Tanlanma kuzatuv anketalari mamlakatning butun geografik maydonini ichiga qamrab oladi. Tanlanma kuzatuv anketalari aholining eng so'ngi ro'yxatdan o'tgan ma'lumoti asosida tuziladi. Demak, anketaning optimal formasi nimaga bog'liq degan savol tug'iladi, bu biz nimani analiz qilishimizga va bizga qanday ma'lumot kerakligiga bog'liq. Agar maqsad faqatgina ichki turistlarning umumiy oqimini aniqlash bo'lsa, unda 1500-2000 ta to'liq so'rovlar yetarli bo'ladi. Ushbu holatda, so'rovnomalar hajmi eng samarali hisoblanadi, qaysiki 90 foizli kafolat bilan so'rovlarning 2,5% gina xatoli hisoblanadi.

Biz tashrif buyuruvchilarning mavsumiy turlarini aniqlash va statistik ko'rsatkichlarni keng doiradagi tahlilini qilish kerak bo'lsa, unda katta miqdordagi kuzatuv so'rovnomalar kerak bo'ladi.

Nihoyat, tanlanma-anketalarini tayyorlash davomida javobsiz qoladigan anketalarni ham inobatga olish kerak, masalan tadqiqot uchun 8000 ta so'rovnomalar tahlili kerak bo'lsa-yu, lekin javoblarni qabul qilish imkoniyati faqat yarmiga teng bo'lsa, u holda so'rovnomalarni 16000 ta qilish kerak.

Tashrif buyuruvchilardan anketalar jamoat transportlarida, tunash maskanlarida, uylarida amalga oshirilishi mumkin. Ichki tashrif buyuruvchilardan anketalarni olishning eng yaxshisi bu ularning uylarida olish hisoblanadi.

Anketa so'rovlari o'tkazishning yana bir yo'li bu uydagi oila a'zolarining kattalaridan olish kerak. Bu ishni intervyu oluvchi ham quyudagi tartibda olishi mumkin: birinchi uyda uyining voyaga yetgan 25-34 yoshli erkak kishisidan boshlash kerak, agar bunday vaziyat bo'lmasa, u holda uyning 45-54 yoshlardagi ayollaridan olish kerak. Chunki bu uydagi voyaga yetganlarning har birining

sayohati haqida ma'lumot olish imkonini beradi va har qanday bir sayohatni nolga aylantirish imkoniyatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, to'liq anketalarning soni har bir regionda amalga oshirilganda aholisi soniga proporsional bo'lishi kerak. Masalan, ma'lum bir shahar aholisi umumiy aholi sonining 5% ni tashkil qilsa, tanlama-anketalarining ham faqatgina 5%i shu shahardan olinishi kerak (albatta nolga teng ya'ni javobsiz anketalar bu yerga kirmaydi).

**Tanlanma anketa so'rovlarini o'tkazish davomida olinadigan javoblarning sifatini yaxshilash usullari.** Anketalardagi javoblarning qarib 75% dan kamrog'ining ishonchliligida va to'g'riligida shubha uyg'onadi. Boshqacha qilib aytganda, haqqatdan ham yig'ilgan javoblarda aynan bizni qiziqtirgan ishonchli javoblarni ololmaslik mumkin.

Agarda bu usulda kimdir uyida bo'lmay qolsa, qolgan ikki usuldan foydalaniladi, ya'ni qayta ravishda uyga telefon qilinadi yoki intervyu olish uchun qayta tashrif buyuriladi.

Bunday holatlar telefon orqali intervyu olganda, intervyu oluvchi yaxshi tayyorgarlik ko'rishi lozim, u korrespondent bilan yaxshi aloqaga kirishgan holda unga aniq, tushunarli savollar bilan murojat qilishi, javoblarni esa e'tibor bilan tinglashi kerak, shundagina samarali natijaga erishib bo'ladi.

Anketalarni olib borish mobaynida intervyu oluvchi bilan birga uning ishini nazorat qiluvchi va unga ko'maklashuvchi odam yonlanadi. Chunki har qanday intervyuchining birinchi vazifasi qiyinlik qilishi va u yordamga muhtoj bo'lishi mumkin, bundan tashqari ular bilan birga regionalning statistika xodimi ham hamroh bo'lishi kerak. Shunda barcha intervyular so'rovlarni sifatli qabul qilib oladilar.

Shu davr mobaynida darhol anketalarni tartibga solib borish talab etiladi, qaysiki ular to'liq, to'g'ri va foydali bo'lishi uchun. Bu yerda faqatgina to'liq anketalar o'rganiladi, javobsiz qolgan yoki to'liq bo'lmagan kuzatuv anketalari chetda qoldiriladi.

Barcha anketalardagi javoblar analiz qilib bo`lingandan keyin, mamlakat bo`ylab barcha ichki turizm haqidagi ma'lumotlarni aniqlash uchun **“kengaytirilgan usul”** dan foydalaniladi.

“Kengaytirilgan usul”da tanlama-anketalari natijalarining keyingi bosqichda ishlatilishi bilan bog`liq. Birinchidan, har bir xonadonga tushadigan so`rov hajmining ehtimolligi hisoblanadi. Masalan, agarda mamlakatda 20 million uy xo`jaliklari bo`lsa, so`rovnomalar esa faqat 10000 ta bo`lsa demak, har bir uy xo`liligiga so`rovnomalar hajmi quyidagiga teng bo`ladi:  $10000:20\text{ mln.}=0.0005$ .

Ikkinchidan, uy xo`jaliklari uchun “tayanch o`g`irlik” hisoblanib chiqiladi:  $1,0:0,0005 = 2000$ . Boshqacha so`z bilan aytganda bu so`rovnomalarning 2000 ga yaqinida o`xshashlik ehtimoli bo`ladi.

Uchinchidan, javobsiz qolgan so`rovnomalarning “indikativ ko`rsatkich”larini aniqlaymiz, masalan, 10000 ta so`rovnomadani 8000 mingtasi to`liq va to`g`ri bo`lsa, demak so`rovnomaning indikativ koeffitsiyentini (indikativ ko`rsatkichi) aniqlaymiz:  $10000:8000 = 1.25$ .

To`rtinchidan, “tuzatish koeffitsient”ining tengligi bilan “tayanch og`irlik” qiymati ko`paytiriladi va bu orqali “tuzatilgan og`irlik” topiladi: bizning misolda bu-  $2000*1.25=2500$ . Buning ma`nosi mamlakat bo`ylab oilalardan olingan so`rovnomalar javoblarining 2500 ga yaqini bir-biriga o`xshash deganidir.

Beshinchidan, har bir javob mos keladigan og`irlik bilan ko`paytiriladi, ya`ni oldingi bo`limning oxirgi bandida aytilganidek, har bir yashovchi hudud aholisining umumiy aholi soniga mos proporsional foizi “tuzatilgan o`g`irlik” qiymatiga ko`paytiriladi. Bizning misolda agar shaharning aholisi sonidan kelib chiqib tuzatish og`irligini 0.5 deb olsak, u holda:  $2500*0,5 = 1250$ . Buning ma`nosi shuki, shaharda 1250 ta uy xo`jaligidan to`liq javoblar olingan.

Yuqoridagi jarayon, uy xususiyatlarining har biri uchun takror bo`lishi kerak, chunki so`rovnomalarni tanlashda umumiy aholi hisobga olinishi lozim.

Oltinchi, agar aholining umumiy miqdori bo`ylab so`rovnoma natijalari kengaytirmoqchi bo`lsangiz, “umumiy aholi uchun tuzatish koeffitsiyenti”ni hisoblash kerak. Bunda umumiy so`rovlarning og`irlik koeffitsiyenti soni

tuzatilishlar bilan birga kelingki 21 mln. ga yetishi mumkin. Shu bilan birga umumiy aholi soni 20 mln. ni tashkil qilsa, “**umumiy aholi uchun tuzatish koeffitsiyenti**”:  $20 \text{ mln.} : 21 \text{ mln.} = 0,952$ .

Yettinchi, har bir oilaning so`ngi o`g`irlik koeffitsiyenti bilan umumiy aholi tuzatish koeffitsiyenti ko`paytiriladi, bu esa har bir oila uchun **yakuniy kengaytirish nisbatini (koeffitsiyentini)** olish maqsadida qilinadi. Ushbu misolda, shahar hududida joylashgan va kiritilgan uy xo`jaliklari so`rovlari, kengaytirish koeffitsiyenti bo`ladi:  $1250 \times 0.952 = 1,190.0$

Sakkizinchi, ichki tashriflarning umumiy miqdorini aniqlash uchun yakuniy kengaytirilgan koeffitsiyent umumiy (barcha) so`rovlarning soniga ko`paytiriladi. Agarda bizga ichki tashriflarning xarakterli xususiyatlar kerak bo`lsa, u holda xususiyatlar soniga qarab umumiy kengaytirilgan koeffitsiyent ko`paytiriladi. Misol uchun, tanlanma anketalarni to`ldirish vaqtida shahar hududida 100 ta tashrif deb javob bersa, bu javob yakuniy kengaytirilgan koeffitsiyentga ko`paytiriladi:  $100 \times 1.190 = 119.0$  ichki tashrif bo`lgan.(shahar hududiga)[81].

Demak, ichki turizm statistikasini yuritish va uning miqdorini aniqlashda turli xil usullardan foydalanishimiz mumkin. Albatta bizda ichki turizm statistikasi yuritiladi, ammo faqatgina bular ro`yxatga olingan sayohatchilarni tashkil qiladi. Bu esa real miqdorni ko`rsata olmaydi. Shu sababli tanlanma-anketalari bilan ishlash jarayonini taklif qilib, mummoning yechimini bartaraf qilsak bo`ladi.


## **2.2. Ichki turizmning milliy iqtisodiyotdagi salmog`ining iqtisodiy tahlili**

Hozirgi 21-asrda iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanayotgan sohalaridan biri bu albatta turizm sanoatidir. Oxirgi 10 yillikdan ortiq yillar davomida ham jahonda ham mamlakatimizda bu soha sezilarli darajada o`zgarib, serdaromad manbaga aylanib bormoqda. Masalan turizmdan olingan umumiy daromad 2014-yilda 3.628.6 mlrd so`mga yetgan va bu YaIM ning 3.0% ni tashkil qilgan bo`lsa, o`z navbatida turizm sanoatida band ishchilar soni 379000 kishidan ortiqdir. Turizm iqtisodiyotimizning muhim sektori ekanligini anglagan holda, keyingi

yillarda soha rivojlanishi uchun 2015-yil 10-martda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 53-son qarori tasdiqlandi [169]. Bu qarorga binoan asosan 2 ta masala turistlar xavfsizligi nuqtai nazaridan ta’kidlab o‘tildi.

- 1) Turistlar O‘zbekistonga kirishining holatini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab tarixiy va aholi yashash joylarida turistlarining vaqtinchalik qolishi va harakatini ko‘rib chiqish;
- 2) Turistlar uchun kirish man qilingan turistik obyektlar va maydonlarning ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish.

Yuqorida aytib o‘tilganidek yurtimiz iqtisodiyoti turizmdan yaxshi daromad olib, ko‘plab kishilar ish bilan band bo‘lmoqda. Albatta sohada har yili oldinga siljishni kuzatish mumkin. Bunda turizmning qaysi turida siljishlarni aniq ko‘rish uchun raqamlarda tahlillarni ko‘rib chiqamiz.



### 2.1-chizma. O‘zbekistonda ko‘rsatilgan xizmatlar miqdori

**Manba:** Государственный комитет республики Узбекистан по статистике, Туризм в Узбекистане, 2014 г.

2013-yil yakunlariga ko‘ra, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yildagi 37 foizdan 53 foizga o‘tdi. 2014-yilda esa 54 foizga yetgan

Bu raqam va ko‘rsatkichlar mamlakatimiz xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda taraqqiy topgan ko‘pgina davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib

borayotganligini ko`rsatadi. Albatta turizmning ham xizmati bu o`rinda yuqori hisoblanadi.

## 2.1-jadval


### O`zbekiston turizm sohasi asosiy ko`rsatkichlari

	2010	2011	2012	2013
<b>Barcha ko`rsatilgan xizmatlar soni, tashriflar (kishi)</b>	<b>4122039</b>	<b>5939131</b>	<b>7492010</b>	<b>8142609</b>
Bulardan				
Turistik firma va tashkilotlar	363300	411736	511596	536589 <sup>1</sup>
Mehmonxona va boshqa turdagi joylashtirish maskanlari	947302	1122078	1189593	1199998
Kurort-sanatoriya maskanlari	237297	255096	256971	265516
Dam olish maskanlari	142157	186997	210435	259804
Turistik zonalar	3565	4766	5285	5480
<b>Kirish turizmi</b>	<b>992698</b>	<b>1421590</b>	<b>1926719</b>	<b>1999949</b>
Bulardan				
Turistik firma va tashkilotlar	197886	218270	231120	225790
Mehmonxona va boshqa turdagi joylashtirish maskanlari	376183	467762	462062	455047
Kurort-sanatoriya maskanlari	1964	2834	6822	3404
Dam olish tashkilotlari	1600	1660	1296	1553
Turistik zonalar	1469	2679	3371	2920
<b>Chiqish turizmi</b>	<b>2030003</b>	<b>3248325</b>	<b>4143690</b>	<b>4629235</b>
Bulardan				
Turistik firma va tashkilotlar	15181	18252	21516	39853
<b>Ichki turizm</b>	<b>1099338</b>	<b>1269216</b>	<b>1421601</b>	<b>1513425</b>
Bulardan				
Turistik firma va tashkilotlar	150223	175214	232868	245551
Mehmonxona va boshqa turdagi joylashtirish maskanlari	571119	654316	727531	744951
Kurort-sanatoriya maskanlari	235333	252262	250149	262112
Dam olish maskanlari	140557	185337	209139	258251
Turistik hududlar	2096	2087	1914	2560

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>1</sup> Bu yerda faqat viza, passport va mehmonxonalarda bron qilish xizmatlari ko`rsatilgan.

Yuqorida berilgan raqamlardan biz bugungi kungacha yurtimizda turizm salohiyati kundan kunga oshib borayotganligini ko`rishimiz mumkin. Ayniqsa bizda kirish turizmining qolgan turizm turlariga nisbatan miqdoriy jihatdan yuqoriligi, qarib 2 mlnga yetgan, dunyo sayyohlarining yurtimizga qiziqayotganligini bildiradi. O`z navbatida esa ichki turizm ham yildan yilga oshib 1,5 mlndan ortganini ko`rishimiz mumkin. Ammo, ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun juda ko`p imkoniyatlarga egamiz. Agar turizm turlarini tahlil qiladigan bo`lsak, butunjahon tajribasida, qaysiki turizm industriyasi rivojlangan mamlakatlarda sohadan tushadigan asosiy daromad ichki turizmdan tushadi va shunga qarab soha rivojiga baho beriladi. Chunki ichki turizm sanoatining o`shishi bu aholining sayohat qilishga e`tiborining yuksalayotganidan dalolat beradi. Agarda hozirgi avlodga sayohatni qilishga va bu orqali yurtini tanishga, uni anglashga yordam bersak, kelajakda u o`z yurti haqida xorijga safar qilganda juda ham faxr bilan gapiradi va bir necha xorijlikni jalb qilish imkoniyatiga ega bo`ladi. Xulosada shu kelib chiqadiki ichki turizmni rivojlantirish orqali chiqish va xalqaro turizmni oshirishga erishamiz. O`z navbatida budjetimizga tushumlarning ortishi va uni xalqimiz farovonligi yo`lida sarflanishi jahondagi o`rnimizni yanada mustahkamlaydi.



## 2.2-chizma. O`zbekistonda turizm tashriflarining turizmga tutgan o`rni.

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



2.2-chizmada ichki turizm va boshqa turizm turlarining o`shish suratlarini ko`rsatilgan. Bu tashriflarda sayyohlarning ehtiyojlari turistik firma va tashkilotlar, joylashtirish maskanlari sanatoriyalar, dam olish maskanlari, turistik hududlarda qondirilgan. Ichki turizmdagi ehtiyojlar asosan kurort sanatoriya (262112 kishi) va mehmonxonalarda (744951 kishi) ko`rsatilgan. Ichki turizmdagi turfirmalarning xizmatlari katta qismni tashkil qilmaydi, albatta ichki turizmda ishlovchi turistik firmalar yurtimizda endi rivojlanib, bugungi kunda o`z dasturlari asosida turlarni tashkil qilishni boshladilar va bu keyinchalik mamlakatda ichki turizmni yuqori darajaga olib chiqishi aniq. Chunki turoperator orqali turlarni tashkil qilish sayohatni sokin va unumli o`tishini ta`minlaydi. Ammo hozirgi kunda mahalliy aholimizning aksariyati turoperatorlar faoliyati haqida axborotga, ba`zilar esa tushunchaga ham ega emaslar. Buning muammoning asosiy yechimi reklama va targ`ibot ishlarini to`g`ri tashkil etish bilan bog`liqdir.

## 2.2-jadval

### O`zbekistonda joylashtirish maskanlaridagi tunashlar soni

	2010	2011	2012	2013
<b>Turistik firma va tashkilotlar soni</b>	<b>313</b>	<b>332</b>	<b>351</b>	<b>348</b>
<b>Ko`rsatilgan xizmatlar soni (kishi)</b>	<b>363300</b>	<b>411736</b>	<b>511596</b>	<b>536589</b>
Bulardan				
Kirish turizmi	197886	218270	231120	225790
Chiqish turizmi	15181	18252	21516	39853
Ichki turizm	150223	175214	232868	245551
<b>Mehmonxonalar soni va boshqa joylashtirish maskanlari</b>	<b>434</b>	<b>500</b>	<b>521</b>	<b>539</b>
<b>Tunashlar soni</b>	<b>947302</b>	<b>1122078</b>	<b>1189593</b>	<b>1199998</b>
Bulardan				
norezidentlar	376183	467762	462062	455047
rezidentlar	571119	654316	727531	744951
<b>Kurort-sanatoriya maskanlari soni</b>	<b>144</b>	<b>149</b>	<b>146</b>	<b>156</b>
<b>Tunashlar soni (kishi)</b>	<b>237297</b>	<b>255096</b>	<b>256971</b>	<b>265516</b>
Bulardan				

norezidentlar	1964	2834	6822	3404
rezidentlar	235333	252262	250149	262112
<b>Dam olish maskanlari soni</b>	<b>129</b>	<b>169</b>	<b>201</b>	<b>216</b>
<b>Tunashlar soni (kishi)</b>	<b>142157</b>	<b>186997</b>	<b>210435</b>	<b>259804</b>
Bulardan				
norezidentlar	1600	1660	1296	1553
rezidentlar	140557	185337	209139	258251
<b>Turistik hududlar soni</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
<b>Tunashlar soni (kishi)</b>	<b>3565</b>	<b>4766</b>	<b>5285</b>	<b>5480</b>
Bulardan				
norezidentlar	1469	2679	3371	2920
rezidentlar	2096	2087	1914	2560

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2.2-jadvalning birinchi qismida turistik tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy va ko'p qismi ichki turizmga ko'rsatilganligini kuzatishingiz mumkin. Ularning soni 250 mingga yaqin kishini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki yurtdoshlarimizning asosiy qismi turistik hududlarda emas, balki kurort sanatoriyalarida va dam olish maskanlarida qolishni afzal ko'rishadi. Bu esa bizga bunday dam olish maskanlariga e'tiborni yanada qaratib, sanatoriyalar va dam olish maskanlarini ko'paytirishimiz kerakligini aytmoqda. Shuningdek o'z navbatida turistik hududlarimiz imidjini ham va u yerga mahalliy aholining ham tashrifini oshirishimiz shart. Chunki yurtimizda turistik hududni mashhur qiladigan ham tanitadigan ham mahalliy xalqdir. Agar mamlakat miqyosida turistik hudud tanilsagina u xorijiy sayyohlarni jalb qiladi va yuqori daromad keltiradigan hududga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tunashlar sonini ortishiga va ularning tunab qolish o'rtacha kunini oshirishimiz zarurdir. Shuni hisobga olib hozirda jahon uslubidan biri bu animatsion turizmni rivojlantirishga qaratish lozim deb bilamiz. Chunki sayohat davomidagi turli xil animatsion namoyishlar orqali ularning o'zini va vaqtini ko'proq jalb qilish imkoniyati mavjud.

**O`zbekistondagi turistik firma va tashkilotlarning 2013-yildagi  
hududlararo ko`rsatgan xizmatlari (kishi)**

	Turistik firma va tashkilotlar soni	Xizmat ko`rsatilgan kishilar soni	Bulardan		
			Kirish turizmi	Chiqish turizmi	Ichki turizm
O`zbekiston Respublikasi	348	536589	225790	39853	245551
Qoraqalpog`iston Respublikasi	11	1727	67	-	1600
Viloyatlar					
Andijon	9	524		295	229
Buxoro	14	62465	48233	261	13971
Jizzax	2	9835	-	-	9835
Qashqadaryo	8	6845	3648	58	3139
Navoiy	5	7795	3227	-	4568
Namangan	1	2460	-	-	2460
Samarqand	48	58300	13949	112	40737
Surxandaryo	2	2670	-	-	2670
Sirdaryo	4	856	-	-	856
Toshkent vil.	5	1063	305	758	-
Farg`ona	2	244	-	230	14
Xorazm	3	114480	42599	-	71881
Toshkent shah.	234	267285	113762	38139	93591

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ichki turizm sayohatlari ko`plab amalga oshiriladigan viloyatlarga Toshkent shahri, Xorazm, Samarqand, Buxoro hisoblanadi. E'tibor qaratadigan bo'lsak xalqaro tashriflar oqimi ham xuddi shu viloyat va shaharlarda yaxshi darajada. Bundan keladigan xulosa shuki qayerda ichki turizm darajasi yuqori bo'lsa, o'sha yerda xalqaro turizm ham rivojlanadi. Shuningdek, ichki turizmni yanada rivojlantiradigan boshqa resurslarga boy viloyatlarimizni rivojlantirishimiz zarur. Masalan Jizzaxda ekoturizm, Sirdaryo va boshqa tog`li hududlarda tog` turizmni

bilan birga ekstrimal turlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Albatta bu jarayonni tezlashtirishda turfirmalar raqobati ham katta o`rin tutadi. Toshkent shahridagi 250 ga yaqin turistik firmalar bir-biri bilan raqobatda bo`lib, yangi xizmatlar, yangidan-yangi turmahsulotlar yaratadilar. Bunday mahsulotlarning sonini yanada orttirish uchun xorijiy investorlarni jalb qilish yaxshi natija beradi va raqobat muhitini kuchaytiradi. Raqobat-soha rivojining kaliti hisoblanadi.

## 2.4-jadval

### O`zbekistondagi asosiy turistik resurslar

	2010	2011	2012	2013
<b>Asosiy turistik resurslar soni</b>	<b>Bulardan</b>			
Muzeylar	105	106	107	109
Teatrlar	42	43	45	45
Konsert tashkilotlari	37	39	43	52
Sirk	1	1	1	1
Madaniy va dam olish bog`lari	145	145	164	167
Hayvonot bog`lari	2	2	2	2
Infromatsion axborot markazlari kutubxonalari	2809	2809	2831	2834

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Har qanday sohaning rivojlanish tezligi resurs bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Turizm ham bugungi kunda resurslar yetarli, faqatgina biz ulardan to`liq foydalana olishimiz zarur. Masalan urf odatlarimizning bir qismiga aylangan milliy taomlarimizning jahon darajasidagi yoki respublika darajasidagi festivallarini tashkil qila olsak nafaqat xorijliklar uchun, balki ichki sayyohlarimiz uchun ham juda qiziqarli bayramlarga aylanadi. Aksariyat turizm yatakchi davlatlarning yutuqlari ham shundadir. Ular barcha bayramlarini va urf odatlarini nishonlashni yuqori darajaga olib chiqqan. Shuningdek bizda hali o`rganilmagan, hali to`liqligicha ochilmagan qanchadan qancha tabiiy, tarixiy, madaniy va boshqa resurslarimiz mavjud. Yoki mavjud resurslarimizning asosiy qismi

poytaxtimiz Toshkentda joylashgan. Bunday tematik bog`larni, parklarni har bir tumanda shakllantirish muhimdir. Hozirda jahon miqyosida yoshlar turizmiga ham e`tibor katta, chunki ular sayohatlarining asosiy qismi mamlakatlari doirasida o`tadi. Buning sababi ularning aksariyatida xorijga sayohat qilish imkoniyati pastroq bo`ladi. Ikkinchi tomondan yurtning barcha hududlarni o`rganib dunyo qarashini kengaytiradi. O`z navbatida yuqorida ta`kidlaganimizdek ichki turizmning rivojiga katta hissa qo`shadi.

## 2.5-jadval

### O`zbekiston kurort-sanatoriylarining 2013-yildagi faoliyati

	<i>Barchasi</i>	<i>Yuqori yoshdagilar uchun</i>	<i>Bolalar uchun</i>	<i>Bolalar va ular bilan birga ota onalar uchun</i>	<i>Profil-aktik sanatoriylar</i>	<i>Boshqa turdagi sanatoriya tashkil otlari</i>
Sanatoriylar soni	156	70	28	2	55	1
Nomerlar soni(xonalar)	8026	4376	994	97	2534	25
<b>Barcha tunashlar soni</b>	<b>265516</b>	<b>186101</b>	<b>22117</b>	<b>1630</b>	<b>55414</b>	<b>254</b>
Bulardan						
O`zbekiston fuqarolari	262112	182780	22117	1630	55331	254
MDH davlatlaridan	3044	2961	-	-	83	-
Boshqa davlatlar	360	360	-	-	-	-

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma`lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Aynan bugungi davrda yurtimizdagi aksariyat aholi dam olish vaqtlarida davolanish maskanlari va sog`lomlashtirish maskanlariga borishni afzal ko`rishadi. Chunki bu maskanlarda xizmat ko`rsatish va ishni tashkil qilish juda yaxshi olib borilmoqda. Barcha mijozlar o`z ta`til davrlarini yaxshi kayfiyatda o`tkazmoqdalar. Shu sababli ham turizmga bunday maskanlarning o`rni juda muhim hisoblanadi. Ichki turizm rivojlanish jarayoniga ham ta`sir qiladi. Sanatoriya kurortlar soni yildan yilga ko`paymoqda, albatta talab ham shunga qarab shakllangan. Ularning soni 156 taga yetganini yuqoridagi jadvalda ko`rinib

turibdi. Lekin 31 mln dan ortiq aholi uchun buning o'zi ham yetarli emas. Kelajakda ularning sonini bundanda yuqori qilish zarur.


Bundan tashqari O'zbekistonda turizming hozirgi va keyingi 10 yillikdagi holatini Jahon Turizm Tashkiloti ham o'rganib chiqib, "Travel and Tourism, economic impact 2015 Uzbekistan" bularni raqamlarda aks ettirgan, shu bilan birga hozirgi kundagi potensialimiz va boshqa omillarga tayanib yurtimizda keyingi 10 yilda qanday natijalar ko'ratishini prognoz qilgan.

Bular quyidagilar:

1) Turizm sanoatining O'zbekiston YaIM ga qo'shgan **bevosita hissasi**:

**Bevosita hissa**-bu hissa to'g'ridan to'g'ri turist bilan bo'g'liq bo'lib, ya'ni unga xizmat ko'rsatuvchi turistik korxonalar (mehmonxonalar, transport, ko'ngil ochar markazlar, diqqatga sazovor joylar, mehmonxonadagi qo'shimcha xizmatlar, oziq-ovqat va ichimlik xizmatlari, chakana savdo, transport qo'shimcha xizmatlari, madaniy, sport, sog'likni qayta tiklash bilan bo'g'liq xizmatlar, ichki sayyohlar xarajatlari, tashrif buyurgan turistlar xarajatlarini o'z ichiga oladi[79].

2014-yilda bevosita hissa 1.317.1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lib, (YaIM ning 0.9% i) 2015-yilda uning hissasi 3.9% ga o'sishi kutilgan va keyingi yillarda har yili 6,1% dan o'sib borsa, 2025-yilga borib, bevosita hissa 2.468 mlrd so'mga(YaIM ning 0.9%i) yetishi kutilmoqda.(2.3-chizma)




**2.3-chizma: O'zbekistonda turizming YaIM dagi bevosita o'rni(mlrd so'm).**

**Manba:** UNWTO, Tourism Council, economic impact-Uzbekistan 2015 dan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2) **Turistik xizmatlar eksporti**-bu xorijiy turistlarning mamlakat ichidagi biznes va dam olish maqsadida qilgan sarf xarajatlari, shuningdek transport xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Faqatgina ta'lim uchun qilingan sarflar bundan mustasnodir.


2014-yilda O'zbekistonda turistik xizmatlar eksporti 524.0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 1.5% ni tashkil qilgan. 2015-yilda esa eksport hajmining tushishi kutilgan edi. 2025 yilga borib turistlar soni 4.343.000 kishiga yetib umumiy eksport mablag'i 972.8 mlrd so'm ga yetadi, agarda o'rtacha yiliga 6.8% ga o'sish kuzatilsa (YaIM ning 1.5%i ni tashkil qiladi). Shu asnoda turizmni rivojlantirish maqsadida ham investitsiya kiritish yildan yilga oshib bormoqda. Masalan 2014-yilda kapital investitsiya miqdori 711.0 mlrd so'm (umumiy investitsiyaning 2.2%i) bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatgich. Keyingi 10 yillikda investitsiya hajmining o'rtacha 5.6% dan o'sib borishi kuzatilsa, 2025-yilga borib soha uchun jalb qilingan umumiy summa miqdori 1,321.0 mlrd so'mga yetishi prognoz qilingan.



**2.4-chizma. O'zbekistonda xorijiy tashriflar soni va xizmatlar eksportining muvofiqligi**

**Manba:** UNWTO, Tourism Council, economic impact-Uzbekistan 2015 dan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Hozirda jahon miqyosida turizmning asosiy 2 turi- biznes va ta'til davomidagi dam olish eng ko'p kutiladigan turistik maqsad hisoblanadi. Yurtimizda 2014-yilda dam olish uchun qilingan(kirish va ichki turizm) sarflar umumiy sarflarning 64.6%ni tashkil qilgan bo'lsa(1596.7 mlrd so'm), qolgani biznes turizmiga tegishli(576.5 mlrd so'm).




**2.5-chizma. O'zbekistonda 2014-yilda turizm turlari bo'yicha qilingan sarflar**

**Manba:** UNWTO, Tourism Council, economic impact-Uzbekistan 2015 dan olingan ma'lumotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Mahalliy turistlarning sarflari 2014-yilda umumiy turizmdan qilingan sarflarning 78.8% ni tashkil qilgan bo'lsa, xorijiy turistlar mamlakatimizda qilgan sarflar esa 21.2% ni tashkil qilgan.





**2.6-chizma. O`zbekistonda 2014-yilda xorijiy va ichki turistlar sarflarining ko`rinishi(%)**

**Manba:** UNWTO, Tourism Council, economic impact-Uzbekistan 2015 dan olingan ma`lumotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu ma`lumotlarni Jahon turizm tashkiloti tomonidan berilganini oldinda ham eslatib o`tmoqchiman. Chunki bugungi kundagi statistik muammolarimiz bizda turli xil ma`lumotlarni keltirib chiqarmoqda va natija esa tahlillarning har xilligiga olib kelmoqda.

Demak yuqoridagi ma`lumotlar asosidan bitta umumiy jadval keltirib chiqaradigan bo`lsak, u jadvalda o`zida yurtimizdagi turizm rivojlanishini Jahon turizm tashkiloti qanday ko`rsatkichlar orqali ifodalayotganligini ekanligini bilib olsak bo`ladi.(2.6-jadval)

Umumiy jadvalda turizmning YaIM dagi mavjud ko`rsatkichlari yaxlit holda havola qilingan.

## 2.6-jadval

Turizmning O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hisasi (2013-yil haqiqiy qiymatida)								
O'zbekiston mlrd so'm,	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2025 (Pragnoz)
1. Tovar va xizmatlar eksporti	360.5	513.0	572.8	427.5	556.3	524.9	524.0	972.8
2. Mahalliy sarf xarajatlar (hukumat xarajatlari ham kiradi)	954.6	970.2	1179.7	1271.7	1380.9	1480.4	2072.0	3718.7
3. Davlat miqyosidagi turizm iste'moli	1315.2	1483.2	1752.4	1699.2	1937.2	2005.3	2575.9	4691.4
4. Turizmni ta'minlovchilar tomonida qilingan savdo sotiq	-621.9	-693.0	-817.9	-797.4	-910.9	-943.3	-1.207.0	-2.223.4
5. YaIM dagi bevosita hissasi(=3+4)	693.2	790.1	934.6	901.8	1026.4	1061.9	1.368.6	2.468.0
6. Bevosita va majburiy sarflar yig'indisi	578.5	659.4	779.9	752.6	856.5	886.2	1.142.1	2.059.6
7. Kapital investitsiyalar	448.1	488.8	529.4	521.7	563.3	602.5	762.8	1.321.0
8. Davlat investitsiyalari	134.5	170.5	192.8	202.3	219.5	236.7	312.0	586.6
9. Import tovarlar va bilvosita xarajatlar	-36.8	-30.2	-32.0	-37.3	-43.2	-46.4	-72.7	-158.4
10. Majburiy xarajatlar	425.9	505.7	616.2	588.6	659.3	689.1	895.2	1.613.0
11. YaIM dagi Umumiy hissa (=5+6+7+8+9+10)	2243.5	2584.3	3020.8	2929.6	3281.8	3430.0	4.408.0	7.889.9
12. Sohada ishlovchilar ta'siri ('000) Soha bevosita ishlovchilar	84.7	93.3	106.8	100.0	110.5	111.1	119.8	174.7
13. Turizm sohasida bevosita va bilvosita ishlovchilar	281.7	313.7	355.3	333.7	362.8	368.3	395.4	568.1
14. Chiqish turizmni xarajatlari	89.0	87.4	92.6	79.3	86.0	84.5	107.4	185.3

**Manba:** UNWTO, Tourism Council, economic impact-Uzbekistan 2015 dan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida yurtimizda ichki turizm qay darajada rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Albatta keyingi o'n yillikda bundan ham yuqori natijalarga erishamiz. Buning uchun eng avvalo mavjud resurslarimizdan oqilona foydalanib bilishimiz, turizm industriyasidan tushayotgan daromadlarni optimal ravishda to'g'ri yo'naltira olishimiz kerak. Qolgan turizm rivojlangan davlatlar kabi yo'llarni o'rganib chiqib, bizga mos keladiganini yurtimizda tadbiq qilishimiz shart va zarur.

Jadvalda bizda hali yaxshi rivojlanmagan chiqish turizmining ham 2025-yilga borib yaxshi natijalarga erishimizni ko'rdik. Hozirgi kunda bilamizki yurtimizda turizm mavsumiy hisoblanadi. Manashu mavsumiylikni yo'qotishga erishilsa bu soha yanada gullab yashnaydi. Masalan ishlash davomiyligi uzun bo'ladi, mavsumiylik kamaytirilsa turistik korxonalar ishi to'xtab qolmaydi, doimiy daromad kelib turadi, ishchi xodimlarning turmushi yanada yaxshilanadi. Mavsumiylikga sabab qilib tabiat injiqliklari deb yuritiladi bizda, ya'ni qishda sovuq, yozda issiqligi sababli xorijiy turistlar oqimi kamayadi. Lekin nega Dubayda havo doimiy ravishda 50° dan ortiq bo'lsa ham mavsum to'xtab qolmaydi? Bu savolganing javobi shuki mamlakatda qachonki ichki turizm dominant bo'lsa, o'sha paytda mavsumiylik kamayadi.

### **2.3. O'zbekistonda ijtimoiy turizmning ichki turizmni rivojlantirishdagi roli**

Yurtimizda bugungi kunda turizmga bo'lgan e'tiborning oshishi hukumatimizning sohaga ajratayotgan mablag'i va tashkiliy ishlaridan bilsak bo'ladi.

*Ijtimoiy turizm* tushunchasi ikkinchi jahon urishi tugagandan so'ng Yevropada demokratiya paydo bo'lishi bilan bog'liq. O'sha davrda "Ommabop turizm"(popular tourism) va "Turizm hamma uchun" (tourism for all) atamalaridan birini tanlashga ikkilangan asoschilar dunyoning ko'p tillariga oson tarjima qilinadigan va ijtimoiy layoqatga mos keladigan oddiy termini tanladilar- **ijtimoiy turizm**. Birinchi marta-ijtimoiy turizmga ta'rif, iqtisod fanlari doktori, professor W. Hunziker tomonidan berildi: "Ijtimoiy turizm bu o'zining kichik

aylanma sotib olish qobiliyati va o`zining kichik foydali imkoniyatiga ega, oson kechishi bilan xarakterlanadigan faoliyatdir”[89].

Shuningdek, Professor W. Hunziker *ijtimoiy turizmni ommaviy turizm bilan tenglashtirmaslikni* aytib o`tadi, har ikkalasida ham jalb qilingan turistlar guruhini asosan kam daromadli kishilar tashkil qiladi, ammo ijtimoiy turizmning farqli jihati shundaki, unda sayyohlar dam olish, sog`likni qayta tiklash, davolanish kabi qat`iy maqsadlariga ega bo`lib, ularning xarajatlari savdo birlashmalari, sug`urta kompaniyalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tomonidan qisman yoki to`liq qoplangan bo`ladi. Shunday qilib, ijtimoiy turizm qilinayotgan takliflar turli xil ijtimoiy guruhlar harakati va chora tadbirlari, bu boradagi davlatlardagi siyosat, savdo birlashmalari faoliyatiga bog`liq bo`ladi.

Shuningdek, Xalqaro ijtimoiy turizm tashkiloti (keyingi o`rinlarda-ISTO) ijtimoiy turizmga to`g`ri ta`rif berish maqsadida juda ko`plab so`rovlar va tadqiqotlar o`tkazdi. Bunda Buyuk Britaniya Parlamenti guruhi juda katta yordam berdi. Chunki Britaniya hukumati ham o`zining iqtisodiyotida ijtimoiy turizm rolini oshirishni maqsad qilib qo`ydi. Tashkilotlarlar o`zlarining turli xil tushunchalari va qarashlari bilan ijtimoiy turizm to`g`risida fikrlarni berib o`tganlar.

Ijtimoiy turizm haqidagi so`ngi fikr 2010-yilning sentyabr oyida ISTO ning bosh uchrashuvida shakllantirilgan[141]. Unga ko`ra, *“daromadlari kam qatlam yoki mamlakat hududidagi turistik destinatsiyalarga turizm maqsadida qatnashish imkoniyatiga ega bo`lmagan shaxslarning sayohat bilan bog`liq voqealarda qatnashishi ijtimoiy turizm deyiladi, bunda dam oluvchilarning ishtiroki to`liq yoki qisman ta`minlanadi”*.

Bu asosiy tushuncha Jahon turizm tashkilotiga tegishli Global Code of Ethics for Tourism bo`limida ham inobatga olindi va uning 7-maqolasida aniq ta`kidlanib, *“ijtimoiy turizm, jumladan hamkorlik doirasidagi turizmdir, chunki dam olish, bo`sh vaqtni maroqli o`tkazish, ta`til barchasi jamiyat va davlat hokimiyatining qo`llab quvvatlanishi bilan amalga oshiriladi va rivojlanadi”* deb o`tilgan[166].

Shuningdek Yevropa Iqtisodiy va Ijtimoiy komiteti (European economic and Social Committee) ham ijtimoiy turizm haqida o'z fikrlarini aytib o'tgan. Hayotda mavjud vaziyatlarining bir qanchasida qisman yoki butunlay turizmga ishtirok etishning imkoni bo'lmaydi. Bunga sabab iqtisodiy ahvol, jismoniy yoki aqliy ojizlik, oilaviy ajralishlar, cheklangan harakatlar, geografik qiyinchiliklar va boshqa bir qancha to'siqlardir. Ijtimoiy turizm esa yuqoridagi guruh kishilarga turizmga qatnashish bilan birga ularga sog'lom hayot, ishonch, birdamlilik, hamfikrlilik kabi qarashlarni hurmat qilishni o'rgatadi va to'siqlarni yengib o'tishga yordamlashadi.

Hozirgi davrda ISTO turli xil ijtimoiy-hissadorlar (homiylar) bilan dam olish, ta'tilda vaqtni zavqli o'tkazish va barcha sayohat qilishi uchun aniq vositalar orqali informatsion, tadqiqot, loyiha va taqdimotlar olib bormoqda. Uning tarkibida 40 davlatdan 170 dan ortiq tashkilotlar a'zolik qiladi va faqatgina turizmning ijtimoiy masalalari bilan shug'ullanadi. Bu jarayonda ular Inson huquqlari deklaratsiyasiga tayanadi, chunki unda barcha dam olish, vaqtni maroqli o'tkazish, me'yordan ortiq ishlamaslik va bayramlarda ham to'lov olish huquqida egadirlar deb ta'kidlangan.

### **Ijtimoiy turizmning foydali qirralari:**

**Jamiyatni shakllantiruvchi mexanizm;** inson bayram va ta'til mobaynidagi sayohatlarda ma'naviy, madaniy, insoniy jihatdan boyiydi, chunki u faqatgina turizm orqali yangi joylarni, notanish madaniyatni, svilizatsiyani kashf qilishi, yoki jismoniy, sport va ko'ngil ochar faollik bilan vaqtni maroqli o'tkazishi va bilimli, dono shaxslar bilan uchrashishi mumkin. Sayohat esa bunga keng, ochiqdan-ochiq imkoniyat yaratib beradi.

**Iqtisodiy o'sish omili sifatida;** "turizm barcha uchun"- bu jumla iqtisodiy o'sish kaliti hisoblanadi. Chunki kishilar turizm sohasiga millionlab kiritayotgan investitsiyalari hududning rivojlanish bilan birgalikda, milliy va xalqaro boyliklarni olib kelmoqda, shuningdek boy jamiyatlardan kambag'al davlatlarga resurslar ko'chishini tezlashtirmoqda.

**Hududiy va mahalliy rivojlanish ishtirokchisi;** yuqorida aytib o`tilganidek ijtimoiy turizm iqtisodiy jihatdan doimiy o`shish omili hisoblanib, u quyidagi maqsadlarni o`zida mujassamlashtiradi: turizm o`shishini muvofiqlashtiradi, hududning biomaydoni asl holda saqlanishiga harakat qiladi, ekologik barqarorlikni ta`minlash tadbirlari qo`llaniladi, turistlarning tabiat resurslaridan rohatlanishi uchun foydalaniladi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug`diradi, suv, havo, o`rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun asosiy omil bo`lib xizmat qiladi va mahalliy jamoani bir-birini hurmat qilishga o`rgatadi, cheklangan resurslar bilan ham rivojlanishga erishadi, ijtimoiy va madaniy yuksalishga yordam beradi.

**Global rivojlanish dasturlarining hamkori;** qayerda turizm tartibga solinsa, o`sha yerda tabiatga, madaniy hayotga bo`lgan hurmat oshadi va iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlanadi. Sohani o`rganish jarayonida bir qancha yaxshi natijalarga erishildi. 1985 yilda Ispaniyaning IMMERSO institute tomonidan **Keksalar uchun bayram dasturlari** ishlab chiqildi. Unga ko`ra mavjud talablarga mos yoshda va daromadi past bo`lgan keksalarga turistik mavsum tugagan davrda xayriya yo`li bilan sayohatlar tashkil qilib berildi. Bu o`z navbatida turistik maskanlardagi ishchilarga past mavsumda ham ish o`rnini saqlab qolishga yordam berdi.

Yana bir qilingan ish bu 1982-yilda Fransiyada **Ta`til voucher** larining yaratilishi bo`ldi va ular Fransiya milliy ta`til vaucherlari agentligi (ANCV) tomonidan boshqarib borilmoqda[172]. Vaucherlar ishchi xodimlarga va xalq xizmatida bo`lgan kishilarga turistik destinatsiyalarda oila a`zolari bilan birgalikda qulay chegirmalarda dam olish imkonini bergan.

Shuningdek, 2001-yilda Belgiyada **“Bayramlarda ishtirok etish markazi”** tashkil etilgan[135]. Bu markaz hozirgi kunda ham Yevropa ittifoqida yashovchi va jamoat yoki xususiy korxonalarda ishlab turib, kam daromad olayotgan kishilarga va sayohat qilish imkoniyati mavjud bo`lmagan shaxslarga yordam beradi.

Yevropa jamiyati tomonidan Yevropa Parlamenti rahnamoligida 2009-2011-yillarda budjeti 3.5 million € ga teng bo`lgan boshlang`ich maqsadi ijtimoiy turizmga qaratilgan “**Calypso**” dasturi ham yaxshi baholandi. Ularning asosiy maqsadi Yevropa bo`ylab iqtisodiy aloqalarni oshirish va rivojlantirish, mavsum bilan bog`liq muammolarni kamaytirish, yangi va yaxshi ish joylarini turizm sektorida tashkil etish kabilar bo`lgan[127]. Mavsum past davr asosan quyidagi 4 guruh kishilarga e`tibor qaratilgan:

- Yoshlar
- Yoshi kattalar yoki keksalar
- Harakatlanishi cheklanganlar(nogironlar)
- Iqtisodiy daromadi kam kishilar.

**Ijtimoiy turizmning xususiyatlari.** Ta`kidlanganidek, ijtimoiy turizm tibbiy davolanish, g`amxo`rlik, yoshlar, o`quv sayohatlari, maktab oromgohlari va yana bir necha ko`rinishlarda bo`ladi va shu nuqtai nazardan turizmning boshqa ko`rinishlariga qaraganda aniq turlarga ajratish qiyin hisoblanadi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, ijtimoiy turizmning xususiyatlarini sayohatning boshqa ko`rinishiga murojaat qilgan iste`molchilar kategoriyasi orqali aniqlab olinadi.

Bu turdagi turizmning qabul qilib oluvchilari guruhini iqtisodiy jihatdan chegaralangan yoki daromadi eng kam ish haqini tashkil etuvchilar, masalan: pensionerlar, ishsizlar, talabalar, qishloq xo`jaligida faoliyat yurituvchi va boshqalar hisoblanadi. Ularga sayohat qulayliklaridan qisman yoki to`liq tarzda foydalanadilar, ya`ni ijtimoiy xayriya tashkilotlari, savdo uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, shuningdek turoperatorlar tomonidan taklif etilgan to`lov qulayliklari kabilar sayohatni amalga oshirishlariga yordam beradi.

Ijtimoiy turizmni rivojlantirish uchun istalgan yo`lni tanlash davomida quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- Ko`pchilik hududlarda yoki mamlakatlarda ijtimoiy turizmning ta`minoti yoki talab borasida bir xillikga ega emasligi;

- Turizmda talab o'zgaruvchan rivojlanishga ega, shuning inobatga olgan holda taklifning to'g'ri berilishi juda muhim;

Demak, ijtimoiy turizmni tashkil qilishda bir necha xususiyatlarga e'tiborga olish muhimdir.



## 2.7-chizma. Ijtimoiy turizm xususiyatlari

**Manba:** Tadqiqotlar olib borish natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ijtimoiy turizmning rivojiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar ham yo'q emas va bular quyidagilar:

- **Psixologik to'siq**-dam olish imkoniyatiga ega shaxslar sababsiz dam olishga borishdan bosh tortadilar.
- **Oilaviy to'siq**-fakt shundaki, potensial sayohat qiluvchilarning asosiy qismi oila qurishgan, maktab yoshidagi bolalari bo'lganligi sababli maktab ta'ili davrida sayohatga chiqa olmaydilar.
- **Texnik to'siq**-katta kompaniyalar ham ishchilariga aynan maktab ta'tillari davrida o'z eshiklarini yopib qo'yadilar, tabiiyki ularning ko'pchiligi maktab ta'tilida sayohatga chiqishni xoxlashmaydi.

Iqtisodiy krizis va strukturaviy o'zgarishlar, globallashuv, ko'p sonli ishsizlik, ko'p farzandlilikning mavjudligi qashshoqlikni keltirib chiqarmoqda. Samarali iqtisodiyot bunday muammolarga qarshi kurashish uchun ko'pdan ko'p yangi yo'llarni taklif qila oladi.



## **II bob bo'yicha xulosa**

Hozirgi kunda bilamizki yurtimizda turizm mavsumiy hisoblanadi. Manashu mavsumiylikni yo'qotishga erishilsa, bu soha yanada gullab yashnaydi. Masalan ishlash davomiyligi uzun bo'ladi, mavsumiylik kamaytirilsa turistik korxonalar ishi to'xtab qolmaydi, doimiy daromad kelib turadi, ishchi xodimlarning turmushi yanada yaxshilanadi.

Izlanishlar ko'rsatadiki turizm tadbirlari barqaror va yetarli daromadga ega oilalarda tashkil qilinadi. Kambag'al bo'lish insonlarning turizmga ishtirok etish imkoniyatini pasaytiradi. Bu esa turizmni chegaralab, unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham ijtimoiy turizm hududdagi salbiy ta'sirlarga qarshi kurashish manbai bo'lishi mumkin. Turizm hammamiz uchun o'zaro bilim imkoniyatlarimizni almashishga, hamfikrlilikda, birdamlikda va baxtli hayot tarzida yashash imkoniyatini beradi.

Shuningdek, ichki turizm statistikasini yuritish va uning miqdorini aniqlashda turli xil usullardan foydalanishimiz mumkin. Albatta bizda ichki turizm statistikasi yuritiladi, ammo faqatgina bular ro'yxatga olingan sayohatchilarni tashkil qiladi. Bu esa real miqdorni ko'rsata olmaydi. Shuni hisobga olgan holda ichki turizmdagi statistik ma'lumotlarni yig'ish maqsadida metodologik ko'rsatma tayyorlashga erishildi. Ko'rsatmadagi usullar Jahon Turizm Tashkiloti tavsiyalari asosida shakllantirilgan.

Shu sababli tanlanma-anketalari bilan ishlash jarayonini taklif qilib, mummoning yechimini bartaraf qilsak bo'ladi. Statistik tahlillarning to'liq olinishiga erishish orqali uning iqtisodiy samadorligini, turistik markazlarni va eng asosiysi mahalliy sayyohlarning xoxish istaklarini bilib olamiz. Bu ma'lumotlar esa soha rivoji uchun maxsus loyihalar tayyorlash va amalga oshirish kabi imkoniyatlarni beradi.

### **III-bob. O'zbekistonda ichki turizmni yanada rivojlantirish istiqbollari va chora-tadbirlari**

#### **3.1. Ichki turizmni rivojlantirishda turistik mamlakatlar tajribalarini qo'llash imkoniyatlari**

Bugungi kunda, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda xizmatlar sohasi, ayniqsa, turizmni jadal rivojlantirish asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tan olish kerakki, hozirgi davrga kelib bu soha juda katta yutuqqa erishdi va unga e'tibor tobora ortib bormoqda. Buni yurtimizda 2014-yilning birinchi yarim yilligida mamlakatimizda ko'rsatilgan turistik xizmatlar hajmi 2013-yilning birinchi yarmiga nisbatan 113.4%ga, turizm xizmatlari eksporti esa 115.3%ga o'sganidan ham ko'rish mumkin[126]. Juda ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining asosini turizm sohasidan keladigan daromadlar egallaydi. Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti I.A Karimov o'zining N PQ-1754 qarori bilan xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016-yillarga mo'ljallangan dastur loyihasini tasdiqladi[151].

Kundan - kunga soha rivojlanishi uchun yangidan - yangi ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi rasmiy saytining xabar berishicha, 2014-yilning 15-dekabrida Xitoyning Shanxay shahrida ishlab chiqarilgan, "Higer" kompaniyasi tomonidan 2 qavatlik milliy va jahon standartlariga javob beradigan, barcha mavsumga moslashtirilgan (ya'ni 2-qavatida sayohatchilarga qulaylik yaratish maqsadida avtobusning yuqori qismi ham ochiq, ham yopiq qismlardan tashkil topgan) 2 ta avtobus keltirildi. Bu dabl-deklarlar 2015-yil 17-yanvar kuni o'zining birinchi ekskursion ishini boshladi. Bu avtobuslar 2 ta marshrut ostida qadim Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylaridan o'tadi va doimiy grafik ostida harakatlanadi. Hozirda ularning sonini 15 taga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Bu esa nafaqat xorijdan kelgan mehmonlarga balki ichki turistlarga ham shaharning ko'rkam hududlarini sayohat qilishlari uchun qulayliklar yaratadi. Shuningdek "O'zbekturizm" MK si 2016 yilda dunyoning turli mamlakatlarida bo'lib o'tadigan yirik xalqaro ko'rgazmalarda "O'zbekiston" stendini tashkil etish va xususiy turistik

tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy stendimizni zamonaviy va milliy uygʻunlikka yoʻgʻrilgan dizaynda xorijliklarga namoyish qilish boʻyicha taraddud ishlari olib borilmoqda.

### 3.1-jadval

#### 2016-yil mobaynida Oʻzbekiston milliy stendi ishtirok etishi rejalashtirilgan xalqaro turizm koʻrgazmalari roʻyxati

№	Koʻrgazma nomi	Oʻtkazilish sanasi	Shahar, mamlakat
1	«ITB Berlin 2016» xalqaro turizm sanoati koʻrgazmasi	9-13 mart	Berlin, Germaniya
2	«INTURMARKET» xalqaro turizm koʻrgazmasi	19-22 mart	Moskva, Rossiya
3	23-Moskva «MITT 2016» xalqaro turizm koʻrgazmasi	23-26 mart	Moskva, Rossiya
4	«AITF-2016» XV “Turizm va sayohat” xalqaro turizm koʻrgazmasi	7-9 aprel	Boku, Ozarbaijon
5	«FREIZEIT - 2016» Bahorgi sayohat va hordiq koʻrgazmasi	15-17 aprel	Klagenfurt, Avstriya
6	«TOP-RESA-2016» xalqaro turizm koʻrgazmasi	20-23 sentabr	Parij, Fransiya
7	«TUR EKSPONERAT-2016» Turizm, sport va hordiqning barcha turlari koʻrgazmasi. Turoperator va turagentliklar	22-25 sentabr	Xabarovsk, Rossiya
8	«JATA TRAVEL SHOW CASE-2016» xalqaro turizm koʻrgazmasi	22-25 sentabr	Tokio, Yaponiya

**Manba:** Oʻzbekturizm MK veb sahifasi, yangiliklar qismi, 10-fevral

Hozirga kelib, mamlaktimizda xalqaro turizm rivojlangan boʻlib, tobora chet ellik sayyohlarning tashrifi soni ortib bormoqda. Lekin ichki turizm rivojlanish holatida biroz oqsashlar kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar tajribasidan kuzatib aytadigan boʻlsak, rivojlangan mamlakatlarda Jahon turistik tashkilotining statistik maʼlumotlariga koʻra, turizmdan keladigan umumiy daromadlarning

60%idan ko`prog`ini ichki turizmdan tushadigan tushumlar tashkil etadi[100]. Agar bizdagi mavjud turizm resurrlaridan to`liq foydalanilsa, juda katta yutuqlarga erishish mumkin. Chunki, mamlakatimizda turizmning ko`plab turlarini rivojlantirish uchun yetarli resurslar mavjud.

Jahon tajribasidan turizmni (xalqaro va ichki) rivojlantirishda Avstraliyada olib borilgan ishlar soha rivoji uchun juda katta hissa qo`shgan. Buni raqamlarda ham kuzatishimiz mumkin. Avstraliyada turizm rivojlanishi Avstraliya hukumati sayohat industriyasidan oladigan daromadi va ko`plab ishchi o`rinlarini yaratishini tushunib yetgandan keyin katta siljishga olib keldi. 2015-yilning o`zida 87054000 ming tashrif buyuruvchi 1 kundan ortiq sayohat qilgan bo`lib, tunashlar soni 308908000 taga teng, o`rtacha tunash kuni 3.8 kunga tengdir[164].

Bu darajaga erishish uchun Avstraliya hukumati 10 yillik turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan va uni amalga oshirgan. Bunda Avstraliya hukumati turizmni nazorat qiluvchi yangi bo`g`inni ishlab chiqdi. Bu bo`g`in Tourism White Paper (TWP-2003-yil) deb nomlanib, u o`z tarkibiga “Turizm Avstraliya Komissiyasi”, “Turizm tadqiqotlari buyurosi”, “Avstraliya Kuzatuv” va “Turizmni prognozlashtirish konsulligi” kabi tashkilotlarni birlashtirgan. TWP Avstraliyada turizmni milliy darajada va xalqaro darajada rivojlantirish, shuningdek turistik mahsulotlar sifatini oshirish uchun bozorni o`rganib, bir necha strategiyalarni ishlab chiqdi. Mavjud ishlab chiqilgan strategiyalar 4 asosiy maqsadni mo`ljallagan.

- 1) Australita turizm marketingini va uni siljitish yo`llarini ishlab chiqish;
- 2) Yangi turistik bozorlarni topish va ularni rivojlantirish;
- 3) Turizm biznesini kengaytirish;
- 4) Transport va infrastruktura darajasini oshirish;

### **Avstraliya turizm marketingini va uni siljitish yo`llarini ishlab chiqish.**

TWP maqsadlari dan biri bu Avstraliya ichki va xalqaro turizm bozorlarini kengaytirish bo`lgan. Shu maqsadda hukumat 120.6 million AUD miqdordagi pul ajratgan, bu mablag`lar dengiz orti reklamalari va marketing xarajatlariga sarflangan. Shuningdek qo`shimcha ravishda ichki turizmni bozorini rivojlantirish uchun 45.5 million AUD sarflangan.

2006-yil 23-fevral kuni, Turizm Avstraliya Komissiyasi “Avstraliyadan takrorlanmas taklif” shiori bilan xorij mamlakatlarida reklama ishlarini olib bordi, reklama samarasi tufayli yilning oxiriga borib Avstraliya Web sahifasi orqali tashriflar soni 40% ga oshdi.

Bundan tashqari, Turizm Avstraliya Komissiyasi 7 million AUD miqdordagi mablag`larni Avstraliyaning go`zal, betakror maskanlarini tanilgan National Geographic va Discovery telekanallarida reklama qilish va ko`rsatuvlar berishga sarflangan. Bunday ko`rsatuvlar va maqolalar asosan tadqiqot olib boruvchilar, sarguzasht qidiruvchi segmentlar bozori uchun mo`ljallangan bo`lib, telekanallar bilan birgalikda hamkorlikda amalga oshirilgan.

Xalqaro bozorda marketingni olib borishdan tashqari, Avstraliya turizm komissiyasi ichki turizm uchun ham “My Australia” shiori bilan ulkan strategiya tuzib chiqdi va bu jarayon 26 oktyabr 2006 yil boshlandi. 2007-yilga borib esa hamkorlikdagi reklama kompaniyalari bu jarayonni yanada kuchaytirishdi. Bulardan biri Avstraliyaning eng yirik nashryot kompaniyasi Fairfaxdir. Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi mahalliy aholini ta`til davomida dam olish to`g`risida ko`nikmalar berish va ularni ta`til davridan qanday foydalanish haqida xabarlar berishdan iborat bo`lgan. Bu orqali ularni o`ziga jalb qila olingan.

**Yangi turistik bozorlarni topish va ularni rivojlantirish.** Bozorlarni kengroq qamrab olish maqsadida Avstraliya hukumati 2007 va 2008 yillar 752 million AUD miqdorga teng mablag` ajratdi. Bu mablag`larning asosiy qismi eksport bozorini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan Grantlarga ajratildi, bu dastur va grantlarda ichki va xalqaro turoperatorlarning bozordagi faoliyatlarini

rivojlantirish uchun ham pul sarflandi. Bunda ko`proq e`tibor Xitoy va Hindiston davlatlari kabilarda ish olib borayotgan turoperatorlarga berildi.

Shuningdek, xuddi shu davlatlardagi potensial mijozlarni aniqlash, ularni jalab qilish yo`llarini topish va amalga oshirish, bu orqali xalqaro turizm nufuzini oshirish uchun 2004-yildan 2008-yilgacha 0.5 million AUD ajratildi.

Bundan tashqari Avstraliya hukumati mohir qo`llar turizmi, vino turizmi, karavan turizmi, ekoturizm, abarigen turizm, madaniy-tarixiy turizm, oshxona va yoshlar turizmi bilan bog`liq segmentlariga kengroq e`tibor berib, bu segmentlar uchun 14.7 million AUD mablag` ajratdi. Asosiy maqsad Avstraliya bayramlari va ta`villarni o`tkazish sifatini oshirish va ko`proq mahalliy sayyohlarni bunga jalb qilish bo`lgan.

**Turizm biznesini kengaytirish.** Avstraliyada turli xil turistik faoliyatlar va turlarini rivojlantirish maqsadida hukumat 5 ta turizm bilan bog`liq ulkan projeklarga 19,5 million AUD sarfladi va bunda o`z navbatida regionlarni rivojlantirish ham nazarda tutilgan edi. Amalga oshirilgan projektlar: Isa tog`idagi Buchanan Rodeo parki, Tamworth Equine markazi, Bundabergdagi Hinkler aviatsiya zali, Eidsvolddagi Eidsvold Sustainable Agriforestry majmuasi, Dalby Wambo nomli yopiq arenalardir. Qo`shimcha ravishda Avstraliya hukumati 226 dan ortiq turizm va rekreatsiya kabi boshqa projeklarga ham, albatta o`zini oqlagan, 53 million AUD miqdorda pul mablag`larini ajratdi. Bu orqali hukumat hududiy turizm mahsulotlarining va xizmatlarining sifatini va ularga yetishishni osonlashtirishni maqsad qilgan.

Shuningdek, "Avstraliya Turizm Komissiyasi" yangi turistik mahsulotni rivojlantirdi, mahsulot nomi "Aborigen turizm" edi. Bunday turdagi turizm mahsuloti aborigen odamlar madaniyati bilan qiziqadigan, va ularning yashash sharoitlarni ko`rish bilan birga o`zida sinab ko`rishni xoxlaydigan turistlar uchun edi. Aborigen turizmni rivojlantirish uchun, Avstraliya hukumati 3.8 million AUD miqdordagi pulni Aborigen turizm bilan shug`ullanuvchi Business Ready dasturlariga ajratdi. Bu mablag`lar faqatgina Aborigen aholiga turistik

mahsulotlarni rivojlantirish uchun emas, balki ularga biznes qilishni o`rgatish va ularda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo`ygan.

Shuningdek 2004-2008-yillar davomida turizm biznesida boshqa yangi imkoniyatlarni va qulayliklarni rivojlantirish uchun hukumat 31 million AUD miqdordagi mablag`ni ajratgan.

**Transport va infrastruktura darajasini oshirish.** So`ngi yillarda Avstraliya hukumati xalqaro havo xizmatini ancha liberallashtirdi va buning natijasida Avstraliyaning ko`plab regionlarida xalqaro reyslar tashkil bo`lib, ularning soni oshdi. Misol uchun, charter reyslar xizmatidan foydalanishni Korea uchun Cairns regioniga ruxsat berildi.

Aviatsiya xizmatini rivojlantirishdan tashqari, hukumat 15 milliard AUD miqdordagi mablag`ni infrastrukturani rivojlantirish uchun ajratdi. Bunda asosiy e`tibor portlar, yo`llar, temir yo`llar va airaportlarni o`zaro bog`lash va ularni kengaytirishga qaratilgan. Quriqlikda harakatlanadigan transportni rivojlantirish va harakatlanishdagi qulayliklarni yaratish ichki va xalqaro sayyohlarga bir qancha imkoniyatlarni yaratdi. Shuningdek, 75% ga teng barcha ichki sayohatlar sayyohlarning shaxsiy transport vositalari bilan amalga oshiriladi. Quriqlik transportining rivojlanishi esa ichki turizmdagi talabning oshishiga katta hissa qo`shdi.

**Ichki turizmning Avstraliya uchun ahamiyati.** Bizneslar ichida ichki turizm biznesi Avstraliyada dominantlik qiladi. Shuningdek xalqaro turizm turli xil iqtisodiy inqirozlar, notinchliklar sababli miqdoran kamaygan bo`lsa ham, ichki turizm aks holat, ya`ni o`sish kutilgan. Shu sababli mahalliy turistlar xoxishiga va ularning talablariga qarab turistik bozor resurslaridan unumli foydalanishga harakat qilinadi.

Turizm rivojlanayotgan va ancha yutuqqa erishgan davlatlardan yana biri bu Yangi Zelandiyada olib borilayotgan va amalga oshirilgan turistik siyosat bilan bog`liq. Yangi Zelandiya o`zining ichki turizm haqidagi bayonotida unga ko`p to`xtalib o`tgan.

**Ichki turizm bu- milliard dollarlik sanoat.** Bunga sabab Yangi Zelandiyada so`ngi yillarda ichki turizm bir tekisda, doimiy o`sib kelmoqda. Bugungi kunda uning yillik qiymati 14 milliard \$ ni tashkil qilgan holda turizmdan keladigan umumiy daromadning 59% ni tashkil qiladi. Ichki sayyohlar har kuni o`rtacha 39 million \$ sarf qiladilar, bu esa shahar, shaharchalar va Yangi Zelandiyaning barcha hududlarga foyda olib keladi[174].

Ichki turizm sayyohlik sanoatida muhim o`rin tutib, iqtisodiy jihatdan elastikligi, turg`unligi va samaradorli bilan yetakchi o`rin kasb etadi, chunki ichki turizm sayyohlari bo`lmasa sohada mavjud bizneslar yil bo`yi o`z faoliyatini yurita olmaydi. Masalan, Yangi Zelandiyaning aborigen xalqi “Kiwi”lar eng ko`p tunashlar va sarflarni amalga oshiradi. Bu tunash va qilingan xarajatlar xalqaro turizmga qaraganda ancha yuqori va mavsumiylikni kamaytirish bilan birga regionlardagi iqtisodiy qiyinchiliklarni yumshatishga katta hissa qo`shadi.

**Ichki turizm-region iqtisodiyoti asosi.** Ichki turizm bilan bog`liq turli xil maqsadga ega sayyohlar o`jiz region va joylarning iqtisodiy holati ko`tarishga, boyliklar yaratilishi, resurslar kirib kelishiga, shuningdek hududda jo`shqinlikning oshishi kabi yutuqlarga olib keladi.

**Ichki turizm- mavsumiylikni yumshatadi.** Ichki turizmda dam olish sayohatlari regionlar uchun juda muhim hisoblanadi, ayniqsa yozgi maktab ta`tili davrida. Albatta boshqa bayram ta`tillari va haftaning dam olish kunlarida ham ichki turizmdagi tashriflar cho`qqisiga chiqadi. Katta shaharlarga borib dam olish maqsadi bo`lganda asosiy e`tibor havo yo`llarining holatiga e`tibor qaratiladi. Agar havo yo`llari tizimida raqobat kuchli bo`lsa, tashrif shuncha ko`p bo`lishi kuzatilgan.

Ko`pgina ichki dam oluvchi sayyohlarning tashriflari mashinada oson va tez yetib boriladigan joylarga qilinadi (3 soatlar atrofida), yoki avia chiptalar narxiga bog`liq. Bundan kelib chiqadigi shaharlar atrofida joylashgan, yetib borish oson maskanlarga yil bo`yi turistlarni qabul qilish imkoniyati mavjud bo`ladi.

Biznes va turli xil qurultoylar bilan bog`liq sayohatlar dam olish sayohatlarining aksini tashkil qiladi, ya`ni ular ish haftasining o`rtasida, o`qish



davri mobaynida va boshqa ish kunlarida tashkil qilinadi. Shuning uchun, Yangi Zelandiya ichki biznes sayohatlari yilning oxirida ham yuqori nuqtalarda bo`ladi.

**Simpoziumlar:** Mitinglar, Konferensiyalar, Simpoziumlar va Ko`rgazmalar ham ichki turistlarni shakllantiruvchi sabablardan biridir. Chunki qanchadan qancha konferensiyalar ichki turistlar ko`payishiga va sarf xarajatlar qilinishiga olib keladi.

**Tadbirlar.** Ko`plab joylarda, tadbirlar, turli xil voqea hodisalar tashrif buyuruvchilarning soni maksimal darajada oshirish bilan birga, o`sha regionga va sohada faoliyat yuritayotganlarda katta miqdorda foyda olib keladi. Chunki tadbirlarga tashrif turistlarga noodatiy tajribalarni taklif qiladi, shuningdek mahalliy aholiga jo`shqinlik va o`zgacha hayajon ulashadi.

Albatta bunda tadbirlar va festivallar bizda ham mavjud bulardan biri “Ipak va ziravorlar” festivalidir. Bu festival jahon sayyohlari qatorida o`zimizning mahalliy xalqni ham birdek o`ziga rom qiladi.



**3.1-rasm. “Ipak va ziravorlar” festivali**

**Manba:** <http://uzbbsilk.com> , Bukhara news qismi.


Buxoroda har yili may oyida o`tkaziladigan bu festivalga xorijlik sayyohlarga nisbatan o`zimizning tumanlardan, qishloqlardan, viloyatlardan kelgan mehmonlar soni ko`pchilikni tashkil qiladi. Bu esa ichki turizmni rivojlantirishda turli xil mavzulardagi tadbirlar, kechalar, shoular, konsertlar va

boshqa ko'ngi ochar dasturlar orqali o'tadigan bayramlarni o'tkazishning o'rni yuqori ekanligini ko'rsatadi.

O'tgan davrlarda, har bir hududning o'ziga mos va xos tadbirlari, ularning o'tkazilish tartiblari va udumlari bo'lgan. Bunday hodisalarning qayta tiklanishi xorijiy turistlardan ko'ra ichki turistlarga qiziqarli bo'lib, ularning kayfiyatini ko'taradi. Bu esa yilda mavjud mavsumni yo'qotib, turistik faoliyatni doimiy ishlashiga olib keladi.

Masalan "Navro'z" bayramida qanchadan qancha tadbirlar uyushtiriladi: konsertlar, ko'rgazmalar, qo'chqor va xo'roz janglari, sport musoboqalari(kurash,futbol, voleybol, estafetalar, milliy o'yinlar, ko'pkari va boshqa.), dorbozlar o'yini, taomlar tayyorlanadi, raqs kechasi tashkil qilinadi. Bularning barchasida xorijiy turistlardan ko'ra o'zimizning mahalliy aholi ko'tarinki ruhda ishtirok qiladi.

**Ichki turizm sayyohlik sanoati biznesini qo'llab quvvatlaydi va uni rivojlantiradi.** Ichki turizm rivojlanishi bilan turizmدا taklif etilayotgan mahsulotlarning sifati oshadi, chunki biznesda faoliyat yurituvchilarning ko'proq tashriflarni jalb qilishga harakati bunga sabab bo'ladi. Albatta, mahsulot sifati yaxshilangandan keyin u xorijiy turistni o'ziga jalb qila oladi. Boshqacha qilib aytganda ichki turizm ichki turizm xalqaro turizm rivojlanishi uchun platforma vazifasini o'taydi. Natijada turistik mahsulotlar va xizmatlar eksporti oshib, har qanday regionda rivojlanish, turmush darajasi yaxshilanishi, yangi ishchi o'rinlarining yaratilishi bilan birga sohada kuchli raqobat muhitini shakllantirib, infratuzilma darajasi ko'tarilishiga olib keladi.



### 3.1-chizma. Yangi Zelandiya. Ichki va xalqaro turizm (mlrd \$)

Manba: <http://www.tourismnewzealand.com/about/about-the-industry/>

Demak turizmni rivojlanish jarayonining asosida ichki turizmni rivojlantirish yotadi. Buni yuqoridagi davlatlar misolida ko`rib chiqdik, ichki turizmni ilg`or darajaga olib chiqish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- Hududdagi barcha mavjud resurslarni aniqlash;
- Infratuzilmani yaxshilashga e`tibor qaratish;
- Yosh kadrlarning yetishib chiqishini ta`minlash;
- Hududning rivojlantirish borasidagi eng yaxshi loyihalarni jalb qilish;
- Sohada faoliyatini boshlash uchun tadbirkorlarga imtiyoz va kreditlarni tashkil qilish;
- Turistik masalalarni amalga oshirish jarayonidagi turli xil darajadagi tashkilotlar munosabatlarini muvofiqlashtirish;
- Ichki turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish;
- Ichki turizm rivojlanish dasturlarini ishlab chiqib hayotga tadbiq etish kabilardir.

### **3.2. O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.**

Yurtimiz azal-azaldan madaniyat o`chog`i sanalib kelgan. Shu sababli xorijlik sayyohlarning e`tiborini tortib kelayotgan go`zal, tarixiy shaharlarimizga 2 mln. yaqin sayyohlar tashrif buyuradi[170].

Mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o`rin tutadi. Zero, har qanday yangi turistik mahsulotga, avvalo, mahalliy sayyohlarda qiziqish uyg`otib, so`ngra uni xorijiy sayyohlarga taqdim etish samarali yo`l ekanligi xalqaro tajribada tasdig`ini topgan. Masalan, jahon sayyohlik sanoatida yetakchi o`rinni egallagan Ispaniyada aholining 90 foizi mamlakat bo`ylab sayohat qiladi. Ushbu davlatga keluvchi xorijiy sayyohlar soni esa 2015-yil yakuni bo`yicha 60.8 millionga yetgan va rekord darajaga chiqdi[145]. Ichki sayohatlar soni esa 3.4% ga tushgan bo`lsa ham

ularning miqdori 139.6 millionni tashkil qiladi[158]. Umuman olganda, biror mamlakat miqyosida turizm intensivligi 50 foizdan oshsa, ya'ni mamlakat umumiy aholisining 14 yoshdan katta qismining yarmidan ko'pi bir yilda hech bo'lmaganda bir marotaba sayohat qilsa, bu o'sha mamlakatda turizm ommaviy tus olganidan dalolatdir.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sayyohlik sohasini taraqqiy ettirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar jarayonida ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu borada qator hududiy dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Masalan: Sayyohlik xizmatlari ko'rsatish sohasiga madaniyat, telekommunikatsiya, savdo, ovqatlanish, sanoat sohasi tashkilotlari hamda muassasalari, ommaviy axborot vositalari faol jalb etilmoqda. Mamlakatimizda ichki turizm salohiyatini keng targ'ib etish, hududlardagi sayyohlik ba'zalari, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriy va kurortlar, rekreatsion va ekoturistik tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda sayyohlik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 2014-yil 13-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, fikrimizga dalil bo'la oladi. Turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ushbu tadbirlar har bir hududning o'ziga xos jihatlari va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan. Masalan, tarixiy va me'moriy obidalar nisbatan kamroq hududlarda faol turdagi turistik xizmatlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, tog'li zonalar, qishloq joylarga mo'ljallangan alohida turdagi turistik xizmatlarni tashkil qilish kabi vazifalar nazarda tutilgan.

“O`zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tomonidan tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda mazkur tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda. Bunday say-harakatlar samarasida Qoraqalpog`iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax va Xorazm viloyatlarida bir qancha o`tov oromgohlari, kempinglar, dam olish va sog`lomlashtirish maskanlari barpo etilib, sayyohlar uchun turli turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Marg`ilon singari shaharlarimizda xalqimizning boy tarixi haqida hikoya qiluvchi qadimiy obidalar avaylab saqlanayotganligi hamda milliy hunarmandlik markazlari faoliyat ko`rsatayotgani mazkur hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni ham jadal rivojlantirishda muhim omil bo`lib xizmat qilmoqda. Xususan, Buxorodagi madaniy va tarixiy yodgorliklar, jumladan, Masjidi Kalon va Chor Bakr majmualari, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G`ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini ziyorat qilish maqsadida minglab hamyurtlarimiz mazkur viloyatga sayohat qilmoqdalar. Tegishli tashkilot va o`quv muassasalari bilan hamkorlikda ichki yo`nalishlar bo`yicha safarga chiqish istagida bo`lgan yurtdoshlarimiz uchun avtobuslarda imtiyozli narxlarda sayohatlar uyushtirilmoqda. Bu yurtdoshlarimizning o`lkamiz boy madaniy merosi va qadimiy tarixi, shuningdek, istiqlol yillarida shahar va qishloqlarimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizning chekka hududlari, xususan, Orolbo`yida ham ichki turizmni rivojlantirish ishlari doirasida yangi sayyohlik yo`nalishlari tashkil etilmoqda. Qoraqalpog`iston Respublikasi hududidagi qadimiy qal`alar hamda diqqatga sazovor joylar bo`ylab qarib yettita yo`nalishda sayohatlar taklif etilmoqda. Xususan, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ustyurt kengliklaridagi sayg`oqlar yaylovi, Sudoche ko`lining saqlanib qolgan akvatoriyasiga sayohatlar uyushtirilmoqda. “Sahrolar ichra o`tmish sadolari”, “Orolga sayohat”, “Tilaklar qudug`i”, “Ipak ipi mo`jizasi”, “Qoraqalpog`istonning qadimiy qal`alari” kabi dasturlardan iborat yo`nalishlar

sayyohlarga ko`proq ma`qul kelmoqda. O`lkaning boy tarixiy va madaniy yodgorliklari haqidagi ma`lumotlarni o`zida mujassam etgan Nukus shahridagi I.Savitskiy nomidagi san`at muzeyida to`qson mingdan ortiq eksponat saqlanadi[159]. Qoraqalpoq elining milliy bezaklari, xalq amaliy san`ati namunalari, kashtachilik buyumlari, milliy liboslari sayyohlarning e`tiborini tortmoqda.

Orolbo`yiga sayyohlarni yanada ko`proq jalb etish maqsadida mintaqaning tabiiy iqlim sharoitidan oqilona foydalanilib, yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, tabiiy suv havzalarida baliq, o`rdak ovlash bo`yicha yangi sayyohlik yo`nalishlari tashkil etilgan. Shuningdek, “Mizdaqxon qal’a”, “Tuproqqal’a”, “Ayoqzal’a”, “Chilpiq” kabi qadimiy yodgorliklar, Amudaryo sohili bo`ylab ekologik turlar tashkil etilmoqda.



### **3.2-rasm. Ayoqzal’a yaqinida tashkil qilingan o`tovli qarorgoh**

**Manba:** [www.google.com](http://www.google.com)

Albatta bunday hordiq chiqarish maskanlarining yaratilishi ichki sayyohlarga ham, xorijiy sayyohlarga ham bir qancha qulaylik tug`diradi va ularning soni ortishiga xizmat qiladi.



### 3.3-rasm. Asrlar sadosi 2012- Ayzoqal`a

Manba: [www.google.com](http://www.google.com)

Yuqoridagi rasmda siz mahalliy aholining festivallarga, bayramlarga bo`lgan e`tibori va jo`shqinligini ko`rish mumkin.

Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qo`llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yo`nalishdan iborat bo`lib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlang`ich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlari tanlab olingan. Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion – dam olish va sog`liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi ko`plab resurslar mavjud. Hududning tog` ekotizimi, arxeologik yodkorliklari u yerda ekologik, speleologik (g`orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang`ida uchish, piyoda sayohat, tog` velosipedini rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qiziqarli ikki turistik yo`nalish ishlab chiqildi. Sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko`rsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shoxobchalari bilan aloqalar yo`lga qo`yildi. Arxeologik yodkorliklarga eltuvchi avtomobil yo`llarida o`zbek, rus va

ingliz tillarida yo`l ko`rsatkichlar o`rnatildi. Tumanda o`n ikkita aholi uylarida mehmonlarni kutib olish uchun sharoitlar yaratildi. Ularda xizmat qiluvchi ishchi va xodimlarning malakasini oshirish maqsadida seminar-treninglar o`tkazildi. Loyihada belgilangan vazifalarga muvofiq, Zomin tumanida tashkil etilgan turistik xizmatlar majmui, tuman haqida atroflicha ma`lumot beruvchi axborotnomalar, videorolik, original logotip yurtimizdagi mahalliy sayyohlik kompaniyalariga taqdim etildi.

Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o`z sayohatlarini mazmunli o`tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo`lib qo`shilmoqda.

Yuqoridagi bobda ta`kidlab o`tkanimizdek ichki turizmni yanada rivojlantirish, boshqa turistik markazlarni aniqlash uchun ichki turizmga yuritiladigan statistikasi rivojlantirish orqali yangi turistik markazlarni aniqlash va resurslar mavjud joylarda yangi loyihalarni amalga oshirish orqali yuqori rivojlanish erishish mumkin. Buxoro viloyat statistika boshqarmasiga taklif berilgan tanlama kuzatuv usulda jarayonni olib borishga oid metodologik ko`rsatma mutaxassislar tomonidan maqullandi. Ushbu ishni amalga oshirish maqsadida kuzatuvni olib borish jarayoni uchun savollar jamlanmasini taqdim qilish muhim rol o`ynaydi. Bunda har qaysi usul uchun alohida savollar to`plamini ishlab chiqish aniq maqsadga yetish uchun muhim hisoblanadi.

Tanlanma kuzatuv usulidan foydalanib ma`lumotlarni yig`ishdagi savollar to`plamini ishlab chiqdik va unda quyidagi so`rovlar bo`ladi:

- O`zbekiston Respublikasi bo`ylab amalga oshirilgan sayohatlar (soni 3 ta gacha);
- Turistik safarning asosiy maqsadi bo`lib, ushbu safar amalga oshishiga sabab bo`lgan maqsad aniqlanadi. Har bir safar bo`yicha faqat bitta javob variant berilishi kerak.



Turistik safarlar quyidagi asosiy maqsadlarga bo`linadi:

Diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, tabiat bilan bog`liq joylarga tashrif buyurish, sport va madaniy tadbirlarni tomosha qilish, sport bilan (chang`i, otda yurish, golf, tennis, piyoda sayohat, alpinizm va shunga o`xshash) noprofessional tarzda shug`ullanish;

Havzalar yonida dam olish suzish basseynlaridan, har qanday dam olish va ko`ngil ochish joylaridan foydalanish, yoshlar va sog`lomlashtirish oromgohlariga, dam olish uylariga borish, davolanish doirasida shug`ullanishni qo`shmagan holda (bu holda asosiy maqsad bo`lib, davolanish va sog`lomlashtirish tadbiri maqsadi hisoblanadi) fitnes bilan shug`ullanish, uy xo`jaligining mulki hisoblangan yoki ijaraga olingan dala hovliga borish va shunga o`xshashlarni o`z ichiga olgan ta`til, hordiq va dam olish;

Tanishlar va qarindoshlarnikiga tashrif buyurish, bular oilaviy tadbirlarga (tug`ilgan kun va shunga o`xshash), to`ylarga, dafn marosimlariga, do`stlarnikiga tashriflarni, shuningdek, bemorlar yoki qariyalarni qisqa muddat davomida parvarish qilish va shunga o`xshashlarni o`z ichiga oladi;

Ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda qisqa muddatli o`quv kurslariga qatnashish, aniq bir o`quv dasturi(rasmiy yoki norasmiy) asosida ta`lim olish yoki to`lov asosida o`qish, tillarni o`rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ilmiy ta`tillar va shunga o`xshashlarni qo`shgan holda rasmiy o`quv kurslari yordamida aniq ko`nikmalarga ega bo`lishni o`z ichiga olgan ta`lim va kasbiy tayyorgarlik;

Shifoxonada, klinikada, shifoxonadan keyingi qo`shimcha davolanish uchun sanatoriyada qisqa muddat davomida davolanish, kurortlar yoki kosmetik jarrohlikni qo`shgan holda tibbiy xizmat ko`rsatuvchi yoki maslahat beruvchi boshqa muassasalarga tashrif buyurishni o`z ichiga olgan davolanish va sog`lomlashtirish tadbirlari. Bir yil va undan ortiq vaqt mobaynida shifoxona muassasasida bo`lishni talab qiladigan uzoq muddat davomida davolanish turizm sohasiga kirmaydi;

Diniy marosim va tadbirlarga tashrif buyurish, muqaddas joylarni ziyorat qilish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga olgan diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar;

Olib sotish yoki kelgusida ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish uchun tovarlar xarid qilishni qo'shmagan holda(bu holda ishga va kasbga oid maqsadlar hisoblanadi), shaxsiy iste'mol yoki sovg'alar uchun iste'mol tovarlari sotib olishni o'z ichiga olgan xaridlarni amalga oshirish;

Ko'ngilli asosdagi(haq olmay) ishlarni, ishga joylashish va migratsiya imkoniyatlarini o'rganishni, boshqa maqsadlarga kiritilmagan, haq to'lanmaydigan vaqtinchalik faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirishni o'z ichiga oluvchi boshqa shaxsiy maqsadlar;

Kengashlar, konferentsiyalar, yarmarkalar va ko'rgazmalarda ishtirok etish, lektsiyalar o'qish, kontsertlar, tomoshalar va spektakl dasturlari bilan chiqish, ilmiy-amaliy yoki fundamental tadqiqotlarda ishtirok etish, turistik safarlar dasturini tuzish, joylashtirish va transport xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish, professional sport tadbirlarida ishtirok etish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga oluvchi, ishga va kasbga oid maqsadlar. Bu maqsadlarga, korxonada yoki tashkilotda yollanib ishlash maqsadida amalga oshirilgan safarlar kiritilmaydi.

- Har bir safar bo'yicha uy xo'jaligining safarda bo'lgan a'zosi ko'rsatiladi. Bunda, har bir a'zo sayohati bo'yicha alohida yuritiladi. Turistik safarning asosiy belgilangan joyi ko'rsatiladi. Bunda har bir safar bo'yicha faqat bitta javob variant bo'lishiga e'tibor berish kerak. O'z navbatida, turistik sayohat doimiy yashab turgan tuman, shahardan tashqariga yoki viloyat hududi bo'ylab va hududdan tashqariga amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.
- Sayohatga chiqish joyidan sayohat qilinadigan joygacha bo'lgan taxminiy masofa ko'rsatiladi. Bu albatta km ko'rsatilishi shart. Turistik safar davomida masofani bosib o'tishdagi transport turi ko'rsatiladi. Bunda ham faqat bitta javob qabul qilinadi. Asosiy transport turi, sayohat davrida masofaning asosiy qismi qaysi

transportda o`tilgan bo`lsa, o`shandan kelib chiqib javob qabul qilinadi yoki umumiy transport xarajatlarida ulushi ko`p bo`lgan transport turi ko`rsatiladi.

- Sayohat davri davomida tunab qolingani barcha joylarni ko`rsatish kerak. Bunday vaziyatlarda transportda tunni o`tkazgan bo`lsa hisobga kiritilmaydi.
- Bir kunlik safar bo`lsa u ham hisobga olinadi.
- Safar davomida barcha tashrif qilingan joydagi eng ko`p tunab qolingani joy ko`rsatiladi.
- Yuqoridagi amalga oshirilgan ishlarga qilingan umumiy xarajatlari ham alohida alohida olinib, keyin umumiy lashtiriladi.
- Shuningdek, safar bilan bog`liq bo`lgan turli xizmatlari to`plami qiymatini o`z ichiga olgan kompleks safarlarga-tashkillashtirilgan safar-qilingan xarajatlari ko`rsatiladi.
- Keyingi qismda o`z sayohatini mustaqil tashkil qilgan ya`ni turpaketsiz safarga chiqish va boshqa xarajatlari ko`rsatiladi.
- O`zining shaxsiy avtotransportiga qilingan xarajatlardan tashqari, avtoyo`l, yo`lovchi va boshqa turdagi jamoa va shahar transportlariga qilingan xarajatlari ko`rsatiladi. Bu xarajatlarga avtobusda, yo`nalishdagi taksida, taksida, metroda, tramvayda, trolleybusda yurish uchun to`lovlar va shunga o`xshash xarajatlari kiradi.
- Agar sayohatchi o`zining shaxsiy transportidan foydalanib sayohatni tashkil qilgan bo`lsa, u holda unga ketgan yoqilg`i sarf xarajatlari yoki joriy ta`mirlash xarajatlari ko`rsatiladi.
- Turistik agentlik ko`rsatgan xizmatlari uchun qilingan xarajatlari ham ko`rsatilib o`tiladi. Ular quyidagilarni tashkil qilishi mumkin: joyni oldindan band qilib berish, ekskursiyalar, madaniy va sport tadbirlari, transport bilan ta`minlash, mehmonxonada joyni, chiptalarni oldindan band qilish va shunga yaqin xarajatlari hisobga olinadi.
- Tomosha tadbirlariga kino, teatr, konsert, muzeylarga, hayvonot bog`lariga, botanika bog`lariga tashrif buyurish, shuningdek, tarixiy joylari va tabiiy

qo`riqxonalariga safar qilish bilan bog`liq bo`lgan xizmatlarga qilingan xarajatlar ham hisobga olinadi.


- Sport sog`lomlashtirish tadbirlariga, istirohat bog`lari va shu singari attraksionlar, dam olish maskanlari va shunga doir maskanlarga tashrif buyurish bilan bog`liq bo`lgab sport xizmatlari, dam olish va hordiq chiqarishga qilingan xarajatlar ko`rsatiladi.
- Borgan joyida o`zi foydalanishi uchun olingan qimmatbaho buyumlar-zargarlik buyumlari, kolleksiya qilish uchun olingan buyumlar, antikvarlar sotib olishga qilingan xarajatlar kiradi.
- Sovg`a qilish va shaxsiy iste`mol uchun olingan xarajatlar (qimmatbaho buyumlardan tashqari) ko`rsatiladi.
- Bunda tashqari sayohat davomida tibbiy yordam, ta`lim, sug`urta xizmatlari, shaxsiy foydalanuv uchun mo`ljallangan buyumlarni ta`mirlash, sartarosh va go`zallik saloni xizmatlari va boshqa o`ziga xos xususiyatiga ega xizmatlarga qilingan xarajatlar ko`rsatiladi.

Demak, ichki turizm rivojlantirish uchun birinchi navbatda hozirda aholi tomonidan tashrif buyurilayotgan, lekin yetarli imkoniyatlarga ega bo`lmagan turistik markazlarni aniqlash va u yerlarda yangi ekologik, rekreatsion, sarguzasht, sport turizmiga moslashtirilgan loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. O`z navbatida ushbu maskanlarni aniqlash statistik ma`lumotlarni aniq va to`g`ri olish bilan chambarchas bog`liqdir. Har qanday sohada statistikani yuritish orqali sohaning oldingi, hozirgi mavjud muammolarni aniqlab, kamchiliklarni bartaraf qilishga imkoniga ega bo`lamiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda ichki turizmning turizm industriyasidagi o`rnini hisobga olib, uning hisobini yuritish va undagi mavjud kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf qilish uchun kerakli tadbir va choralarni ishlab chiqish mamlakatimiz turizm sohasi yuksalishi, davlat budjetiga sayyohlik industriyasidan tushumlarning ortishi, yangi ish o`rinlarning paydo bo`lishi uchun juda ahamiyatli hisoblanadi.

### **3.3. Mahalliy sayyohlarga moslashtirilgan rekreatsion loyiha va turistik dastur**

Yurtimizda turizmning rivojlanishi oxirgi yigirma yil ichida faqat yuksalish sari bormoqda. Bu davr ichida juda ham ko'plab tarixiy yodgorliklar qayta restavratsiya qilindi, yangi bog'lar, ekologik markazlar, qo'riqxonalar tashkil qilindi. Bu jarayon bilan birgalikda turistik safarlar amalga oshirishning huquqiy ba'zasi shakllantirilib, turistik firma va tashkilotlarning ishi muvofiqlashtirildi. Shu bilan bir qatorda ichki turizmning ham rivoji uchun huquqiy asos yaratilib berildi. 2014-yilning 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 60-son qarori "Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorning 4-bandida ichki turoperatorlarga litsenziyalar berish to'g'risida bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi doirasida turoperatorlik xizmatlari ko'rsatishiga (keyingi o'rinlarda ichki turizm deb ataladi) beriladi deb o'tilgan[4].

Ichki turoperatorlarning paydo bo'lishi ichki turizm rivojlanishini yanada rivojlantirishi tabiiydir. Chunki sohada faoliyat olib boruvchi raqobatchilarning paydo bo'lishi natijasida sohada o'sish va rivojlanish kutiladi. Bugungi kunga kelib ichki turizm bilan shug'ullanuvchi turistik tashkilotlar orqali sayohatlar tashkil qilinishi oshib bormoqda. O'z navbatida ichki turoperatorlar yangidan-yangi turistik marshrut va dasturlarni ishlab chiqib, ularni yangi bozorda potensial iste'molchilarga taqdim qilmoqdalar. O'z navbatida Kasaba Uyushmalari qo'mitalari bilan ham hamkorlikda ishlar olib borilishi mahalliy aholida sayohatga, dam olishga bo'lgan ishtiyoqni orttirib davlat budjetiga tushumlar tushishi, yangi ish o'rinlari imkoniyati kengaymoqda. Shu ma'noda Kasaba uyushmalari federatsiyasi va "O'zbekturizm" MK faoliyatlari yanada muvofiqlashtirish orqali bugungi kunda tajriba va malakaga ega bo'lib chiqayotgan shu soha yoshlari uchun qulay imkoniyati ochib beriladi.



### 3.2-chizma. O`zbekiston ichki turizmdagi sayohatlar dinamikasi

**Manba:** O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi tomonidan olingan ma`lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi diagrammada ham so`zimiz o`z isbotini topgan. Mahalliy sayyohlar bugungi kunda asosan sog`lomlashtirish, madaniy-tarixiy maskanlarga borish, ziyorat maqsadlarida sayohatlarini tashkil qilib, asosan shu bilan cheklanib qolmoqdalar. Bunga asosiy sabab yurtimizdagi barcha turistik resurslardan foydalanish imkoniyatining yo`qligidadir. Masalan Buxoro viloyatining o`zida juda ko`plab diqqatga sazovor joylar mavjud bo`lib, ayniqsa ko`llar atrofi, ulardagi go`zallik, flora, fauna kishini hayratda qoldiradi. Shunday maskanlardan Buxoroning Qorako`l tumanida joylashgan “Zamon bobo” ko`li bo`lsa, yana biri Buxoroning shimolida, Shofirkon tumanida joylashgan “Oyoqog`itma” ko`li va uning atroflaridir.

Shu sababli asosiy maqsadi ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan **“Og`itmaning issiq tarovati”** nomli loyihani taqdim qilmoqchiman.

Bu maskan Buxoro shahridan 150 km uzoqlikda joylashgan bo`lib, maydoni 60 km.kv ni tashkil qiladi. Ko`lda asosan baliqchilik bilan shug`ullaniladi.

**“Og`itmaning issiq tarovati” loyahasining asosiy mazmuni:** Ko`l hududi va uning atrofida ekologik-rekreatsion maskanlarni tashkil qilish orqali hudud

infratuzilmasi yaxshilanishiga, uni butun respublika va jahonda tanilishiga olib kelishdan iboratdir.



### 3.4-rasm. Oyoqog`itma ko`li

**Manba:** Tadqiqot davrida muallif tomonidan olingan fotosurat.

Loyihaning afzallik tomonlari:

- Tabiiy diqqatga sazovor joy bo`lgan “Oyoqog`itma” botig`ini rekreatsion, ekologik, sog`lomlashtiruvchi, ziyoratgoh hudud sifatida tanilib, hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi 40-50% oshadi;
- Hududda asosan ichki hamda kirish turizm faoliyati rivojlanib, turistik bozorda o`z mavqe`iga ega istiqbolli rekreatson-ekologik hudud sifatida kirib boradi.
- O`zbekistonning cho`l zonasida joylashgan mazkur hududning iqtisodiy salohiyati 2 barobarga oshadi;
- Hozirgi kunga global muammoga aylangan ekologik yo`qotishlar kamayadi;
- O`sib kelayotgan yosh avlod tabiatga muhabbat ruhi bilan ulg`ayadi;
- Dastur ishga tushishi bilan rekreatsion markaz o`z xarajatlarini tashrif buyuruvchilardan kelayotgan daromad hisobiga qoplash imkoniyatiga ega bo`ladi.

Ko`lning atrofida yashovchi qishloq aholisining hozirgi davrda asosiy tirikchiligi shu ko`ldan baliq ovlash va uni sotish bilan bo`lsa, loyihaning ishga tushirilishi bilan, ularda yangi imkoniyatlar paydo bo`lishi aniq.



**3.5-rasm. Ko`lning xaritasi**

**Manba:** [www.google.map](http://www.google.map)

Loyihadan kutilayotgan natijalar:

- ✓ Hududdagi rekreatsion, ekoturistik, xizmatlarni rivojlantirish—mahalliy sayyohlarimiz qiziqishini oshiradi;
- ✓ Turizmning ichki va kirish turlari faoliyati orqali hududda turistik iqtisodiy ba`za yaratiladi;
- ✓ Hududda yaratilgan markaz faoliyati yillar sari kengayib, iqtisodiy va tabiiy salohiyati oshadi;
- ✓ Ichki sayyohlarning tashrifi asosida xalqaro turistlarning ham qiziqishi va e`tibori ortib kelajakda ulkan turistik markazga aylanish imkoniyati mavjud;
- ✓ Dam olish madaniyati va turizmga munosabat tubdan o`zgarib, yosh avlod tabiatni asrash uchun izlanishlar olib borib, tabiat bergan resurslardan oqilona foydalanish, uning har bir qismini asrash uchun ham bosh qotiradi.

**Qo`llash sohalari:**

Rekreatsion, ekoturistik salohiyatga ega bo`lgan, suv resurslari mavjud hududlarda qo`llaniladi. Umumiy moliyalashtirishga bo`lgan ehtiyoj 149.5 mln



so`m bo`lib quyidagi xarajatlarga sarflanadi:

- ✚ Hudud tashqarisida sayyohlar hordiq chiqarishi uchun 20 ta chodir va bitta oshxona qurish uchun 80 mln so`m;
- ✚ Ov turizmini tashkil etish uchun 3 mln so`m;
- ✚ Infratuzilma (maxsus yo`lakchalar, yo`nalishni ko`rsatuvchi belgilar, chiroqlar va ma`lumot taxtachalari, transport) yaxshilash uchun 35 mln so`m;
- ✚ Ko`lda cho`milish havzasini tayyorlash va undagi xavfsizlik chora tadbirlarini ko`rish uchun 10 mln so`m;
- ✚ Issiq buloq yonida baseyn tashkil qilish 15 mln so`m;
- ✚ Hazor Nur ziyorathogi atrofini obodonlashtirish 5 mln so`m;
- ✚ Shar-shara artofida maxsus dam oladigan joy 1.5 mln so`m.

Loyiha xarajatlari 3-5 yil muddatda o`zini oqlab, hududni turistik faoliyatni rivojlantiradi.



**3.6-rasm. “Og`itmaning issiq tarovati” rekreatsion hudud loyihasi chizmasi**

**Manba:** Muallif loyihasidan namunalar.

Loyihaning o`ziga xos xususiyatlaridan shundan iboratki ko`lning atrofida cho`milib hordiq chiqarish bilan birga unga yaqinda joylashgan issiq suv chiqadigan buloq mavjud. Bu buloqning suvi 70°C issiqlikda bo`lib, har yili G`ijduvon, Shofirkon, Vobkent tumanlaridan kunida 100 lab kishilar kelib uning suvida cho`milib ketadilar. Buloq suvi juda shifobaxsh bo`lib, tanadagi g`ubor va tuzlarni eritishga yordam beradi.



### 3.7-rasm. Issiq suv bulog`i

**Manba:** Muallif tadqiqotlari vaqtida olingan fotosurat.

Albatta bunday mo`jizaga boy hududlar har qayerda ham uchramaydi. Biz esa shu mo`jizakor resurslardan foydalanishimiz zarurdir. Shu buloq atrofida baseynning qurilishi va unda cho`milishda shu toza, fermentlarga boy buloq suvidan foydalanish va uning oldida dam olish maskani qilish sayyohlar oqimini bir necha barobar ortishiga yordam beradi.

Bundan tashqari oyoqog`itma ko`liga suv quyiladigan joyda qirdan yuqoridan tushadigan 20 metr balandlikdagi tabiiy shar-shara haqida ko`pchilikning umuman xabari yo`q, lekin bunday tabiat inomi hisoblangan ekologik hududlarda dam olish yoki yuqoridan kuzatuv maskanlarini tashkil qilish sayyohlarga durbinlar orqali ko`l atrofidagi turli xil qushlar va hayvonot olamini kuzatishga katta yordam beradi. Turistik dasturda eng jozibadorlikni beradigan resurs shu hisoblanadi. Sababi u Buxoro hududidagi yagona shar-shara ekanligidadir. Bu haqda ko`pchilik ma`lumotga ega emas.

Hattoki shofirkon aholisining aksariyat qismi tabiiy, go`zal sharshara haqida bilishmaydi. Shu maskanni turistik dasturga kiritish orqali uning nomini respublika bo`ylab yoyish va rekreatsion maskanga aylantirish imkoniyati yuqori.



### **3.8-rasm. Oyoqog`itma ko`li yoqasida joylashgan shar-shara**

**Manba:** Muallif tadqiqotlari vaqtida olingan fotosurat.

Loyiha yana bir afzallik jihati shundaki u o`zida kombinatsion turni shakllantiradi. Ya`ni turistik dasturlar ishlab chiqishda tarixiy va ziyorathog maskanlarni kiritish imkoniyatimiz mavjud. Ulardan biri bu Shofirkon tumanida joylashgan, vaqtida buyuk ipak yo`lining muhim nuqtalaridan biri hisoblangan Vardonze qo`rg`onidir. Vardonze, Varzonze, Vardona, Vardanzi — Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi “Qo`rg`oni Vardonze” nomi bilan mashhur yodgorlik (6—19-aslar). Qo`rg`onning uzunligi 110m, kengligi 60–70m, balandligi 45–50m.

Vardonxudotlarning maxsus qarorgohi bo`lgan. Rivoyatlarga ko`ra, Shopurkom –Shopur-kom (ariq) atamasi sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingan.

Shopur Buxoroga kelib, Buxorxudotdan yer olib qasr va qishloq qurdirgan va unga ariq keltirgan. Narshaxiyning yozishicha, “bu katta bir qishloq bo`lib,

katta va mustahkam hisorga ega. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kuni bozor bo`lib, savdogarlar ko`p kelar edi.”

